

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**


**Navoiy viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti**

“Jismoniy tarbiya va amaliy fanlar ta'lifi” kafedrasи

Z.E.Qo'ziyeva

Xalq amaliy san'ati

(Tasviriy san'at o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma)



Navoiy -2012

Muallif:

Z.E .Qo‘ziyeva

- NVPKQTMOI “Jismoniy tarbiya va amaliy fanlar ta’limi” kafedrasи mudiri

Taqrizchilar:

F.R.Ro‘ziqulov

- Psixologiya fanlari nomzodi
Dotsent

S.B.Saidy

- San’atshunoslik fanlari nomzodi

Kompyuterda sahifalovchi: F. Nuritdinova

Ushbu metodik tavsiya Navoiy viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining 2012-yil _____ oyidagi _____ sonli Ilmiy kengashida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach san’at va madaniyatda ham katta burilish sodir bo‘ldi. San’at o‘z taraqqiyot yo‘liga chiqib oldi. San’at yo‘nalishini rivojlantirish yuzasidan bir qancha qarorlar qabul qilindi. O‘zbek milliy amaliy san’ati jahonga olib chiqildi.

Amaliy – badiiy bezak san’ati-san’atning teatr, kino musiqa, tasviriy san’at turlari qatori mustaqil ahamiyat kasb etadi. U o‘z nomiga ko‘ra amaliyotda, ya’ni turmushda qo‘llaniladigan bezak san’ati ma’nosini anglatadi. Amaliy-badiiy bezak san’ati turli xil buyumlar, ko‘chalar, maydonlar, istirohat bog‘lari, ishlab chiqarish korxonalari, o‘quv – tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bog‘liqdir. Shuningdek, u kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari bezagini ham o‘z ichiga oladi. Amaliy-bezak san’ati kishilar turmushida shunchalik keng qo‘llaniladiki, u siz turmushni tasavvur etish qiyin.

Shunday qilib, amaliy san’at buyumlari ularning vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi o‘lchovlariga rioya qilishni talab etadi. Shundagina, bu buyumlar kishilarni hayajonlantiradi, to‘lqinlanadiradi va ularga zavq bag‘ishlaydi.

Xalq amaliy san’ati

Hozirgi amaliy-bezak san’ati ikki yo‘nalishda rivojlanmoqda:

1. Badiiy hunarmandchilik. Bu yo‘nalishga ayrim korxona, zavod, fabrikalar kiradi, Buxorodagi zardo‘zlik buyumlari, Xivadagi gilamdo‘zlik, Rishtondagi sopolsozlik korxonalari shular jumlasidandir.

2. Xalq amaliy-bezak san’ati. Bu yo‘nalishda, asosan, mustaqil ravishda ish olib borayotgan ustalar mahsulot ishlab chiqaradilar.

Birinchi yo‘nalish bo‘yicha badiiy buyumlar ishlab chiqarish korxonalarida ko‘p nusxada tayyorlansa, alohida ustalar faoliyatida buyumlar soni nihoyatda chegaralangan bo‘ladi. Bu esa ularning badiiyligini yuqori bo‘lishligiga olib keladi. Bunday korxonalar mebelsozlik, pichoqchilik, kashtachilik sohalarida ham bor.

Xalq amaliy san’ati har bir xalqda mavjud bo‘lib, ular bir-birlaridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san’atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo‘llanadigan materiali, shakli, tuzilishi, rangi, bezagi, o‘lchovlari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Xalq amaliy san’atining yana bir muhim xarakterli belgilaridan biri bu ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo‘llanib kelingan badiiy an‘analar hisoblanadi. Bu xususiyat ko‘proq har bir xalqning u yashayotgan muhit, tabiat, iqlim sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Chunki, amaliy san’at ustasi o‘z asarini yaratayotganda u go‘zallikni tevarak-atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan, o‘zbek xalq ustalari o‘z ishlarida toychoq, qo‘zichoq, tovus tasvilarini, shimoliy o‘lkalarning ustalari bog‘u, kiyik tasvirlarini ishlaydilar. Asar materialiga esa o‘zbek ustalari ganch, loy, mis kabilarni, shimoliy xalqlar yog‘och va hayvon suyaklarini ko‘proq ishlatadilar. Yuqorida qayd qilganimizdek, asar koloritiga

iqlim ham ta'sir ko'rsatadi. Shimoliy o'lkalar iqlimi sovuq bo'lgani uchun u yerdag'i ustalar ko'proq sovuq ranglarni, issiq iqlimli O'zbekiston ustalari ko'proq iliq ranglarni qo'llaydilar. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy-bezak san'atida o'z an'analari shakllanadi. O'zbekistonda san'atning keng tarqalgan turlaridan biri xalq amaliy-bezak san'atidir. Bu san'at asarlari hayotda ishlataladigan buyumlar-idish-tovoq, kiyim-kechak, uy jihozlari, o'yinchoqlar va boshqa shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Xalq amaliy san'ati asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarak-atrofga, bog'-rog'lar, uylarni tashqi va ichki ko'rinishiga go'zallik kiritishga xizmat qiladi. Bu san'at dastgoh san'atidan o'zining bevosita xalq ehtiyojlariga moslanganligi bilan farq qiladi va inson hayotida ishlataladigan buyumlarning mazmuni bilan bog'lanadi. Amaliy-bezak san'atida hayotdagi mavjud narsalar (masalan, gullar, hayotiy lavhalar va hokazolar) aks etadi. Lekin, ular mustaqil xususiyatga ega bo'lmasdan, ma'lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog'lanib, uni bezashga xizmat qiladi. Amaliy san'at buyumlari birmuncha erkin-ijodkor tafakkuri mahsuli sifatida yaratiladi va u tevarak -atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomonlariga ishlanadigan rangli naqsh va bo'rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Xalq amaliy san'ati juda qadim zamonda paydo bo'lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlanib san'atning eng qadimgi rivoj topgan va barhayot turi bo'lib kelgan.

O'zbek xalqining amaliy san'ati asarlarida ko'proq chamandek ochilgan gulzorlar, bog'lar aks etadi. Chunki, jazirama issiq sharoitda qaqrab yotgan cho'llarni gulzorga aylantirish qadimdan o'zbek xalqiga xos odat bo'lib qolgan. O'zbek xalq amaliy san'atida yog'och uymakorligi, kulolchilik bilan bir qatorda, o'zbek kashtasi, atlasi, beqasami va naqshlar berilgan har xil jihozlarni dunyo xalqlari orasida katta shuhrat qozongan.

Amaliy san'atning eng ko'p tarqalgan ommaviy turi kashtachilik bo'lib, u qadimiy an'analarga ega. O'zbek kashtachiligi, yuqorida aytib o'tganimizdek, gulzor bog'larni eslatadi. Shuning uchun ham biz o'zbek kashtachiligidagi guldasta, majnuntol, quyosh, ba'zan daraxt shoxchasiga qo'ngan qushchalar, hatto hayvon va odam tasvirlarini ham uchratamiz.

O'zbekiston eng qadimiy madaniyat o'choqlari hisoblangan Buxoro va Samarqand so'zanalari o'zining rangdorligi, shakllarining turli-tumanligi va nihoyatda nozik tikilishi bilan farqlanadi. Shahrisabzlik ayollar tikkan kashtachilik buyumlari esa ko'proq gilamni eslatadi. Dorpechlar o'zbek xonardonlarida uyning ichki devorlarining yuqori qismiga aylanib ilib qo'yiladigan bezak sifatida foydalilanildi. Ularning past qismida shokila-shokila bo'lib, osilib turgan kokillari bo'ladi, dorpechlardagi bir shakl qayta takrorlanaveradi. Bu esa gulli daraxt yoki guldasta qator qilib safga tizib qo'ygandek manzarani beradi.

O'zbek kashtachiligidagi do'ppi alohida o'rin egallaydi. Shahrisabzsizning gilam do'ppisi, Buxoroning zar do'ppisi, Namanganning chust, iroqi duxoba va boshqa do'ppilari O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Do'ppi nusxalari ichida eng mashhuri chust do'ppilaridir. Qora atlas yoki satin ustiga ipak bilan

tikilgan bodom gul (yoki qalampir), kizakka tushirilgan gullar do‘ppiga nafislik baxsh etadi.

Kashtachilik san’atida belbog‘, dastro‘mol, sandalpech, bo‘g‘macha va turli to‘rvachalar ham nafis bezatiladi.

O‘zbek kashtachiligining an’analari hozirgi kunda ham muvaffaqiyat bilan rivojlanmoqda.

Nimshohi gazlamalar-beqasam, banoras va adres, atlaslar ham xalqimiz tomonidan e’zozlanadi. O‘zbek xalqi ipak yetishtirishda mohir bo‘libgina qolmay, balki atlaslar to‘qigan, ularni nihoyatda yuqori badiiy did bilan bo‘yay olgan. Ipakdan to‘qilgan to‘rt, sakkiz, o‘n ikki tepkili atlaslar jahonda dong taratgan. Atlaslar kompozitsion jihatdan turli-tumandir, hozirgi kunda uning yuzdan ortiq bezak turi bor. Bular, asosan, turli geometrik shakllar, o‘simpliklarning gul va mevalari, barglari, uy ro‘zg‘or asboblari va hokazolardan iborat.

Ganchkorlik O‘zbekistonda amaliy san’atning eng sevimli qadimiy turlaridan biridir. Amaliy san’atning bu turida Buxorolik va Toshkentlik ustalar samarali mehnat qilmoqdalar.

Avvallari devorlar uyma gulli pannolar bilan bezatilar taxmonlar qirrasiga naqshlar uyilardi. Tokchalar bo‘lsa uymakor yoki jimjimador bezaklar bilan yasatilar, xonaga nur va havo kirib turishi uchun deraza va eshik ustidan tuynuk qilib, unga ganch va yog‘ochdan panjara o‘rnatilar edi. Hozirda qandil, navo, ship kabi me’morchilik detallari ganchdan tayyorlanmoqda. Shuningdek, madaniyat saroylari va ma’muriyat binolarining ichki va tashqi qismini bezatishda ganchkorlikdan keng foydalanmoqda.

O‘zbek ganchkorligining ajoyib sahifasini Buxoro yaqinidagi Sitorai Mohi Xosadagi “Oq uy” da, Toshkentdagи Navoiy nomli katta opera va balet teatrida ko‘rish mumkin. San’atning bu ajoyib va murakkab turida ustalardan Usta Shirin Murodov (Buxoro), Toshpo‘lot Arslonqulov, A.Po‘latov, A.Samadov, M.Usmonov (Toshkent), H.Jalilovlar (Samarqand) dong taratganlar.

Amaliy san’atning yog‘och uymakorligi turi O‘zbekistonda qadimdan mavjud bo‘lib, o‘zining boy an’analariga ega. Yog‘och uymakorligi asarlari eshik, deraza, qutichalar, qantdon, ustunlar, panjaralar uyinchoqlarda o‘z aksini topgan.

Bu borada Xiva ustalarining (Ota Polvonov) ishlari maqtovga loyiqidir. U ishlagan asarlar o‘simpliksimon elementlarning ko‘pligi bo‘rttirib ishlanganligi bilan boshqalarning asarlaridan ajralib turadi.

Toshkent ustalari (S.Xo‘jayev, Niyozqoriyev, M.Qosimov, O. Fayzullayev) esa ko‘proq “guruh” usulida ishlab, geometrik naqshlardan ko‘p foydalanishadi. Qo‘qonlik usta X.Najmiddinov va uning o‘g‘li H.Haydarovning ishlari ham diqqatga sazavordir.

Yog‘och uymakorligi san’atida musiqa asboblarini bezash ham alohida o‘rin egallaydi. Dutor va tanburga, chang va torlarga suyak va sadaflardan qadalgan chiroqli naqshlar kishini hayratda qoldiradi. Bu san’at hozirgi vaqtida Toshkentda keng rivojlanmoqda.

Uymakorlik san’atining ajoyib turlaridan biri- misgarlikdir. O‘zbek misgarlik san’ati juda qadimdan shuhrat qozonib kelgan. Unda sariq va qizil misdan ishlangan turli xil xo‘jalik va uy ro‘zg‘or buyumlari nozik shakllar bilan bezatiladi.

Bezatilgan mis asboblar Buxoro, Qo'qon, Samarqand, Qarshi va Xiva shaharlarda ko'proq yasaladi. Misgarlikda bu shaharlar ustalarining o'ziga xos ishslash uslubi bor. Lagan, patnis, choyidish oftoba va obdastalar misgarlik buyumlari ichida eng ko'p tarqalganlari hisoblanadi.

Amaliy san'atning bu turida Buxorolik M.Muhsinov, S.Podchayev, N.Solihov, S.Hamidov, L.Fozilov, Xorazmlik X.Saidov, M.Jonbekov, B.Yoqubov, S.Xudoyerdiyev, Toshkentlik R.Soibovlar samarali mehnat qilganlar.

Qadimdan uy-ro'zg'or buyumlariga buyoqlar bilan ajoyib naqshlar ishlanib kelingan. Uni naqqoshlik san'ati deb yuritiladi. Respublikamizda amaliy san'atning bu turi qadimdan rivojlangan bo'lib, unda o'zbek ustalari faqat uy-ro'zg'or buyumlarini emas, balki uy-joy va jamoat binolarining devor va shiplarini ham bezaydilar. San'atning bu turida har bir xalq o'zicha ijod qiladi. Masalan, rus amaliy san'atida tekis yog'och yuzasiga usta o'simliksimon naqsh rasmini tushiradi, unga maxsus buyoqlar beradi. U biroz qurigandan so'ng buyog'i o'chib ketmasligi uchun ustidan bir necha bor tiniq lak surtiladi. O'zbek ustalarining ish uslubi boshqacharoqdir. Bu ustalar eskiz bo'yicha duradgor ishlagan yog'ochga elim surtadilar, uning ubsti jilvir qog'oz bilan ishqalangandan so'ng, materialga bronza beriladi. Keyin bronza ustidan ulgi asosida kompozitsion tasvir, uning ustiga qora buyoq surtib, so'ngra naqsh ishlanadi. Naqshlarning o'chib ketmasligi uchun naqsh ustidan bir necha bor toza lak surtiladi.

Xalq ustalari tajribasida naqshning quyidagi turlari ko'proq qo'llaniladi: islimi-egri chiziqli o'simlik elementlardan iborat naqsh; girih to'g'ri chiziqli elementlardan geometrik shakl hosil qiluvchi naqsh; gulli giruh to'g'ri chiziqli elementlardan geometrik shakl hosil qiluvchi naqsh; gulli girix (yoki murakkab) - bu ikki gurhdagi naqsh islimi va girih elementlaridan tashkil topadi. Islimi turdag'i asosiy elementlar-novda, yaproq, gul, g'uncha, kurtak, qalampir, meva, poya kabilar hisoblanadi. Poya va novda turli naqshlarning eng ko'p uchraydigan elementlari hisoblanib, ular naqsh hoshiyalarida qo'llaniladi. Girixlar esa to'rsimon va yulduzsimon bo'lib, yulduz nurlarining soni 5 tadan 16 tagacha boradi.

Naqshning uchinchi turi hisoblangan gulli girih naqshida esa naqsh geometrik va o'simlik elementlarning bir-biriga qo'shib ishlatalishi natijasida hosil bo'ladi. Bunda geometrik element doimo naqsh o'rtasida joylashadi.

Naqqosh A.Qosimjonov, Yo.Raupov, T.To'xtaxo'jayev, J.Hakimov (Toshkent), A.Boltayev (Xiva), S.Norqo'ziyev (Qo'qon) va boshqa ustalar san'atning bu turi mehnat qilib, shuhrat qozonganlar.

Tabiiy loydan turli idishlar yasash va ularni tegishli ranglarda bo'yash kulolchilik hisoblanadi va u O'zbekistonda juda qadim zamonda rivojlangan. Kulolchilik san'ati buyumlariga lagan, tovoq, choynak, piyola sopol va chinni idishlar, shuningdek, loydan ishlangan uyinchoqlar kiradi.

Kulolchilik san'atida bezatishning turli usullari qo'llaniladi. Shunday usullardan biri "qalam" usulidir. Bu usulda bezak idishlar naqshlarning rasmi chizib olinmasdan to'g'ridan-to'g'ri mo'yqalam bilan ishlanaveradi. Bu usullarda ko'proq Rishton va G'ijduvon ustalari ishlashadi. Ba'zi joylarda ustalar gilvata bilan gul chizib, keyin buyoq beriladigan "chizma" usulidan foydalanishdi. Bu usul Toshkentlik ustalar orasida keng tarqalgan.

O‘zbek kulolchilik buyumlari bezak kompozitsiyalarida o‘simpliksimon va geometrik elementlarning boyligi, xilma-hilligi bo‘yoqlar gammasingning yorqinligi bilan ajralib turadi. Ularda ferauz rang baxt keltiruvchi belgi sifatida ko‘p ishlatiladi.

Kulolchilik O‘zbekiston me’morchiligidagi koshinkorlik tarzida ham keng qo‘llaniladi. Madrasa, masjid, karvonsaroy, hammomlarni peshtoqlarida, xona ichkarisidagi devor bezaklarida kulolchilik san’atining namunalari o‘z aksini topgan, hozirgi kunlarda ham kulolchilik jamoat, turar joy binolarini bezatishda keng qo‘llanilmoqda. Respublikamizda bir qator usta kulollarni birlashtirgan kulolchilik ustaxonalarini mavjud, ular xalqimiz talablariga va didiga mos kulolchilik buyumlarini yaratmoqdalar.

O‘zbekistonda kulolchilik san’atini rivojlantirish kulollardan U.Jo‘raqulov, A.Muxtorov (Samarqand), U.Umarov, A. Hazratqulov, M.Narzullayev (G‘ijduvon), B.Boisov, R.Matchonov (Xorazm) K.Turobov Yu.Ziyomuhamedov, A.Rahmatov M.Rahimov, R.Orifjonov, A.No‘monov, T.Miraliyev, A.Aminov (Toshkent), T.Tillaxo‘jayev (Namangan) A.Xudoynazarov (Kattaqo‘rg‘on), B.Xalilov (Denov), M.Obloqulov (Urgut), aka-uka Hojimirovlar (Andijon), X.Rahimova (Buxoro), Sh.Qalandarov (Xo‘jayli) va boshqa ustalar katta hissa qo‘shganlar.

O‘rta Osiyo xalqlari qadimdan o‘zlarining zardo‘zlik san’atlari bilan faxrlanadilar. Zardo‘zlik uchun asosiy material zar, ipak, baxmal kabilardir. Ustalar zar to‘qishning ikki turini qo‘llashadi. Birinchisi zaminni zar bilan tikib to‘ldirish va ikkinchisi naqshlarni zar bilan tikish. Chevarlar naqshli va syujetli kompozisiyalarda ko‘pincha o‘simpliklarni tasvirlashadi: gullar, barglar, bodom gullari, paxta shular jumlasidandir. Keyingi vaqtarda zardo‘zlik buyumlarida jonli narsalar ham tasvirlanmoqda.

Qadimdan zardo‘zlik Buxoro va Samarqand shaharlarida keng rivojlangan. Hozirgi vaqtda bunday buyumlar Buxorodagi maxsus zardo‘zlik fabrikasida, birlashmalar, ustaxonalar va alohida ustalar tomonidan ko‘plab ishlab chiqilmoqda.

Xalq amaliy san’atini o‘rganishda darsda texnikaviy vositalardan foydalanish, amaliy san’at buyumlarining namunalari va ularning suratlarini yig‘ish, amaliy san’at ustalarining nomlari, ular san’atning qaysi turida asar yaratganliklarini, amaliy san’at rivoj topgan shahar va qishloqlarning nomlarini va san’atning shu turida uchraydigan iboralarni yozdirib borish zarur.

Amaliy san’at haqida o‘tkaziladigan suhbatlarda bolalar e’tibori o‘rganilayotgan asar amaliy san’atning qaysi turiga kirishi, uning muallifi, asarning kompozitsiyasi, ranglari, elementlari, materiali, ishslash usullari, amaliy san’at buyumlarining shakli, tuzilishi va bezagi uning vazifasiga mosligi va boshqalarga qaratiladi. Bunday mashg‘ulotlar ma’ruza shaklida bo‘lsa-da, savol-javob usulidan keng foydalanish lozim.

O‘quvchilarning xalq amaliy san’atiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish

Xalq amaliy san’ati o‘quvchilarda badiiy didni o‘stirish bilan bir qatorda, ularga borliqni idrok etishni va unga estetik munosabatda bo‘lishni shakllantiradi: O‘quvchilarning badiiy moyiliklarini amaliy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish ularga keyinchalik shu jihozlarini, kiyim kechaklarni to‘g‘ri tashkil etishda, qadimda va

xozirgi badiiy bezak amaliy san'at asarlarining estetik mohiyatini tushunib olishida ko'maklashadi. O'quvchilarni xalq ustalari ijodidagi badiiy bezak obrazlari bilan tanishtirish borliqqa estetik munosabatini o'stirishda yordam beradi.

O'quvchilarni xalq amaliy san'atini idrok etishlari va borliqqa estetik munosabatlarini o'stirish uchun quyidagi tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak: - Xalq amaliy san'atlarini turlari: unda ishlatiladigan asbob va materillar, qo'laniladigan usullarni bilish: - Xalq badiiy bezak va amaliy san'atida oid ma'lum terminlarni bilish; - o'tmish va hozirgi xalq amaliy san'ati ustalarini bilish; yuqori badiiy saviyada ishlagan va mamlakatimiz hamda shuningdek, chet ellarda saqlanayotgan xalq amaliy san'ati bilan bog'liq bo'lgan asarlarni bilish:

- O'tmish va hozirgi davrlarda O'zbekistonda mavjud, bo'lgan xalq amaliy san'ati bilan yirik tarixiy va madaniy yodgorliklarini bilish;
- Ijtimoiy foydali ishlarga va shuningdek chet ellarda turmushda xalq amaliy san'atidan foydalana bilish.

Xalq amaliy san'atini o'rganish voqealarining tasviriy, ijodiy faoliyatlarida ham katta ahamiyatga ega. Masalan o'quvchilar avvalgi xalq hayoti bilan bog'liq, bo'lgan mavzuda jumladan, uy jihozlari (gilam, so'zana, patnis, lagan, tovoq, choynak, piyola, choy idish, sandiq, quti, hum xontaxta va boshqalar) kiyim kechaklar: - to'n, ko'ylak, do'ppi, qiyiq, tillaqosh, etik, ro'mol, va boshqalar.

Yog'och va ganch o'ymakorligida buyumlarini tasvirlashda xalq amaliy san'atidan olgan bilim va tushunchalari qo'l keladi. Xalq amaliy san'atidan olib boriladigan suhbatlar amaliy san'atni turlarini ketma-ketlilik asosida tushuntirib berishdan iborat bo'lishi o'quv samaradorligini oshirishi mumkin. Xalq amaliy san'atining keng tarqalgan turlaridan biri badiiy bezak amaliy san'atidir. Bu san'at insoniyat hayotida ishlatiladigan buyumlar: - idish tovoq, kiyim- kechak, gilam, mebel buyumlari, o'yinchoqlar va shu kabilarni bezatishda ishlatiladi.

Dekorativ san'ati asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarak atrofga, bog'larga uylarning tashqi va ichki ko'rinishlariga go'zallik kiritish uchun qo'llaniladi. Bu san'at o'zining xalq ehtiyojida moslaganligi bilan farq qiladi. Dekorativ amaliy san'atda real narsalar aks etishi mumkin, lekin ular mustaqil xarakterga ega bo'lmay balki, ma'lum bir buyum shakli va mazmuni bilan bog'liq bo'ladi: Dekorativ amaiy san'at buyumlari birmuncha erkin san'atkor fantaziyasida bog'liq holda yaratiladi: va eng avvalo atrofga go'zallik kiritishda qaratiladi. – Masalan jimjimador ustun, eshik va darvozalar, turli naqsh va bo'rtma tasvirlar bunga misol bo'la oladi.

Naqqoshlik xalq amaliy san'atining eng qadimiylari keng tarqalgan turlaridan biridir. Naqqoshlik san'atining gurkirib rivojlanishi bevosita O'rta Osiyoda islom dinini bevosita kirib kelishi bilan bog'liqidir. Chunki islom dini tirik mavjudodni tasvirlashni taqiqlab qo'yadi. Naqqoshlikda o'simliksimon, geometrik, har xil arab yozuvli naqshlar va boshqa turdag'i ishlar paydo bo'ladi.

Naqqoshlik san'ati juda ko'p fanlar va san'atning boshqa turllari bilan uzviy bog'liqidir. Uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham ana shundadir. Masalan naqshlarni 1/2; 1/4; 1/8 kabi bo'laklariga bo'lib ishlaganda matematika geometrik naqshlar tahlil qilinsa, geometriya fani bilan uzviy bog'liqligi ayon bo'ladi. Yani

uchburchak to‘rtburchak, shakllardan tuzilgan naqshlar geometriya fanidan asoslanib yaratiladi.

Geometrik naqshlarni chizmachiliksiz tasavvur qilish yoki chizish mumkin, emas. Bundan tashqari naqshlardan misgarlikda yog‘och va ganch o‘ymakorligida, kulolchilikda ham keng foydalaniladi. O‘quvchilarga naqqoshlik xaqida tushuncha berar ekanmiz uning element va turlari bilan boshqa xalqlar naqqoshilk san’atidan ajralib turadi. Naqqoshlikdan barg elementlari, (oddiy barglar, murakkab shoxbarg, gazakbarg) gul elementlari, (katta oygul, kichik oygul) bofta, shikifta, bano elementlari mavjud

Naqsh turlari esa tugunch, islimi va grix grunj bir xil elementlardan tashkil topgan naqsh. Islim (arabcha) yuguruvchi degan ma’noni bildirib, to‘g‘ri yo‘l ichiga ilonsimon izi shaklida chiziladigan chiziqlar. Bu naqqoshlikni eng keng tarqalgan guruxlar turidir. Grix (arabcha) tuguncha ma’nosini bildiradi. Grix geometrik shakllarni tartib bilan joylashtirishdan xosil bo‘ladi.

Tabiiy loydan turli idishlar yasashda va ularni tegishli ranglarga bo‘yash - kulolchilik san’atidir. Kulolchilik O‘zbekistonda juda qadimdan rivojlangan. Kulolchilik san’ati buyumlariga lagan, tovoq, choynak, piyola, spol chini idishlar va shuningdek loydan yasalgan o‘yinchoqlar kiradi. Kulolchilik san’atida bezatishning turli usullari qo‘llaniladi.

Bulardan biri «Qalam» usulidir. Bu usulda bezak to‘g‘ridan to‘g‘ri, aynan buyumga axta orqali bosilmasdan bezak berilaveradi. Bu usulda ko‘proq Rishton bilan G‘ijduvon ustalari ishlashadi. Ba’zi joylarda esa ustalar oldin gulvata orqali gul chizib keyin bo‘yoq berishadi: bu usulni «Chizma» usul deyiladi. Bu ko‘proq Toshkentlik ustalar orasida keng tarqalgan. O‘zbek kulolchilik san’ati buyumlaridagi bezak kompazitsiyalari o‘simpliksimon va geometrik elementlarning boyligi va xilma-xilligi, bo‘yoqlar gammasingning yorqinligi bilan ajralib turadi. Ularga feruza ranglar baxt keltiruvchi sifatida ko‘p ishlatiladi.

Kulolchilik me’morchilikda ham keng qo‘llangan. Madrasa, masjit, karvonsaroy, hammomlarni peshtoqlarida kulolchilikdan keng foydalanilgan. Bundan tashqari sopoldan turli-tuman afsonaviy xayvonlar, qushchalar, baliqlarning shakllarini yasash kabi mo‘jaz san’at azaldan kulollarimizning sevimli mashg‘uloti ermag'i bo‘lgan.

Ayrim joylarda hozir ham xom va kuydirilgan loylardan hushtakchalar, turli o‘yinchoqlar, xaykalchalar yasaydigan ustalarni uchratish mumkin. Muqovadagi tarvuz va to‘ppi sotuvchilar basavlat oqsoqollar, bir-biriga zo‘r berib gap o‘qtirayotgan suhbатdoshlarga bir qarang.

Beozorgina tabassum uyg‘otuvchi bu mitti haykalchalar. Yaltiroq shishasimon qotishma bilan sirlangan sopoldan yasalgan. Ularning buyi bir necha millimetrdan bir necha santimetrgacha keladi. SHunga qaramay har-biri o‘z fe’li-atvori bilan ajralib turadi. Mualliflar bu haykalchalarni chindan maxorat bilan ishlagan. Xozirgi kunda kulolchilik san’atiga etibor yana kuchaydi. Bir necha kulollarni birlashtirgan kulolchilik ustaxonalari bo‘lib, ular xalq talabiga va didiga mos buyumlar yaratilmoqdalar.

Xalqimiz kulolchilik san'atini rivojlantirishda kulolchilik ustalardan Jo'raqulov, A.Muxtorov, U.Umarov, A.Xazratqulov, M.Nazrullaev, R.Matjonov, A.Nig'monov aka uka Xojimarovlar va shu kabi bir qator san'atkorlar katta xissa qo'shganlar.

Ganchkorik – O'zbekistonda amaliy san'at(da)ning eng sevimli va qadimiy turlaridan biridir. Avvallari devorlar oynagulli panolar bilan bezatilar, taxmonlar qirasida naqshlar o'yilar edi. Xozirda qandil, navo, ship kabi me'morchilik detallari ganchlardan taylorlanmoqda. Ganch o'ymakorlik san'ati xozirgi kunda tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. U turmushimizga chuqur singib bormoqda. Ganchkorlik san'ati namunalarini xalq amaliy san'ati muzeyida. Badiyin ko'rgazma zallarida, kino va teatr zallarida madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish binolarni yaratamiz. Bundan tashqari temir yo'l binolarida, aeroport binolarida, mexmonxonalarda, muzeyda, choyxona, kofe-restoran xattoki xonadonlarimizda xam bu o'lmas san'at o'z ko'rinishi namoyon etib, ko'zlarni quvontirmoqda. Ganch o'ymakorligining xam o'ziga xos turlari mavjud. Jumladan o'ymakorlik tekkis relpefli va xajmi o'ymalariga bo'linadi.

I. Tekkis relpefli o'ymalar va o'z navbatida zamini bo'yicha ikkiga bo'linadi: - panjaralar, janjira va zanjiralardir.

Ayrim xomaki zanjirlardan ganch kompozitsiyasi atrofida ramka sifatida foydalaniladi.

II. Xajmli o'ymalar: - bu o'ymalar xajmaga ega bo'lgan o'ymalardir. Bularga sharifa gumbaz va qandilar kiradi. Bundan tashqari ganch o'ymakorligida pardozlash usulari bo'lib bular ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi. 1- oddiy pardoz, 2- murakkab pardo, oddiy pardoz

- pax (yoyma) pardoz. Murakkab pardoz: - choka pardoz, tabaqa pardozlar. Pax pardozlar bir tomonlama qilib kesiladi. Bu ko'proq zanjira va qiya o'ymada barg, gul, novda elementlarida, qilib o'yiladi.

Lula pardoz: - yarim yumaloq shaklda pardozlanadi. Bu pardozlash ko'pincha qiyima ganchlarda ishlataladi. Bundan tashqari turunjlarda ham ko'p qo'llaniladi. Choka (yorma) pardoz-naqsh bandlarining qiyaligini o'rtaga olib, uzunasiga o'yilgan pardoz turidir. Bu pardozlash turidan juda qadim zamonlardan foydalanib kelingan. Uning namunalarini ko'proq varaxsha va ofrosiyo vayronalaridan topilgan. Bu pardoz turi juda keng tarqalgan. Tabaqa pardozini Buxoro ustalari ko'p qo'laydi. Ayniqsa usta Shirin Murodov tabaqa pardozini ko'p ishlagan. Ganchkorlarda shunday pardozlash usullari majud ekan. Demak uning o'ziga xos asboblari xam bulardan Masalan:-

- | | |
|----------------|----------------|
| 1. qalam | 5. pux qalam |
| 2. pilta qalam | 6. patak binni |
| 3. minxor | 7. navo |
| 4. shgurgardon | 8. lulakash |

va boshqa ish anjomlari mavjud. Bundan tashqari reyka, sovun, reja (ip boylangan tosh) chizmakashlar uchun sirkul chizg'ich va boshqalar. Yog'och o'ymakorligi xam amaliy san'atning qadimdan mavjud bo'lagn turidir. Yog'och o'ymakorlik asarlari eshik, deraza, quticha, ustunlar, panjaralar turli o'yinchoqlarda o'z aksini tasvirlangan. Xozirgi kunda esa yog'och o'ymakorligidan javonsozlikda, sandiqsozlikda ham foydalanilmoqda. Yog'och o'ymakorligi xalq amaliy san'ati

orasida salmoqli o'rinni egallaydi. Bu borada Xiva ustalarining ishlari (ota Polvonov) maqtovga sazovor. Ular yaratgan asarlarida ko'proq o'simliksimon elemntlarning va ularni bo'rtirib ishlaganligi ko'rish mumkin. Buxoro, Toshkent, Samarqand ustalari esa geometrik shaklda o'yilgan shularni bog'dodi deb atashgan. Yani S.Xo'jayev, N.Ziyaqoriyev, M.Qosimov, O.Fayzullaevlar «Girix» usulida ishlaganlar. Yog'och o'ymakorligi san'atida musiqa asboblarini bezash ham alohida ahamiyatga ega. Dutor, tanbur va torlaraga suyak va sadaflardan qadalgan chiroyli naqshlar o'ymalari kishi diqatini o'ziga tortadi. O'yma naqshlarini ham o'ziga xos shakllari va elementlarini bor.

Masalan: - Bog'dodi: geometrik shaklda (grix) naqshi, turinch naqshi – bu ranglar yordamida chizilganligi uchun pardori turish deyiladi. Muqarnas ikki qavatlil qilib o'yilgan naqshlarga aytildi. Bu naqshlar qattiq yog'ochlarga o'yiladi. Gul elementlaridan tuziladi. Bargli islimiylar – barg elementlaridan tuziladi. Bargli nislimi – barg elementlaridan tuziladi. Bofta islimi kabi turlari mavjud bular avvalo qog'ozga chizib, buyumga tushiriladi. Buyumni o'ymadan oldin, buyum yuzini yumshatish uchun paxta moyi surtiladi. Yog'och o'ymakorligidan daraxtlar, qarag'ay, oq qarag'ay, tog' teragi terak va qayin, shumtol, chinor, nok, o'rik, archa boshqalardir. Yog'ochlarga xilma-xil naqshlarni o'yish usullari uchun po'lat, iskanalar ishlatiladi. Masalan: - kurakcha, navo, to'g'ri iskanalar, iskana, zamin, chekma, morpech, kovza va boshqa ish qurollari. Har xil usullarda o'yilgan naqshlarning atrofini «Xoshiya» nomi bilan ataluvchi naqshlar bilan bezatiladi. Xoshiya o'rtada ishlatilgan naqshlarga nisbatan sayozroq o'yiladi va shu bilan birga o'rtadagi naqsh kompozitsiyasi mos bo'ladi. Bunda o'yilgan buyumning badiiyligi yanada oshadi. Yog'och o'ymakorligini ham o'ziga xos o'yma turlari mavjud, bo'lib bular:

I. Chizma yo'li bilan o'yiladigan naqshlar

1. Ishkomcha – bog'dodi naqshi atrofiga ishlatiladi.
2. Xalqacha – eshik va javonlarni atrofini bezashda ishlatiladi.

II. Chekma yo'li bilan ishlatiladigan naqshlar

- III. Chizma bilan nuqtadan xosil bo'lgan naqshlar xashamli mexrobcha deyiladi. Bu chizma naqshlar oraliqlariga nuqta qo'yishi bilan chiqariladi.

- IV. Chizma bilan morpechdan hosil bo'lgan naqshlar chizma naqshlar va morpech gullarining bo'linmasidan hosil bo'lgan xoshiya naqshlardir.

Xalq amaliy san'atining asosiy turlaridan biri misgarlik – chekanka san'ati juda qadimdan shuxrat qozonib kelmoqda. Bu san'atda naqshlar rangli metallar sariq, qizil mislarga, tillaga zarb berib ishlangan. Amaliy san'atning noyob namunalari sanalgan qadimgi naqshinkor mis barkachlar, kashkillar, ko'rachalar, qumg'onlar va mis laganlar, eshik xalqalari choy, idish, obdasta va boshqalar fikrlarimiz dadilidir. Mis o'ymakorligi naqshi shu bilan harakterlanadiki u sungra qalamlarini bolg'acha bilan idish orqali yaratiladi. Mis buyumlarga ko'proq Buxoro, Qo'qon, Samarqand, Qarshi va Xiva shaxarlariga ko'proq yasaladi. Misgarlikda bu shaxarlar ustalarining o'zgacha ishlash uslublar bor. Amaliy san'atning bu turida Buxorolik S.G'oybullaev, M.Muxsimov, S.Podchaev, A.Xomidov xorazimlik, X.Saidov, M.Zonbekov, B.Yoqubov, Toshkentlik R.Sobirovlar ko'zga ko'rinarli mehnat qilgan. Xalq amaliy san'ati o'zining qadimiyligi, go'zallika boyligi va jimmadorligi bilan yuksak baholanadi.

Uning asosiy materiallari zar iplar va baxmal kabilardir. Zar tikishning xam o‘ziga xos usullari bo‘lib.

Xonani zar bilan tikib to‘ldirish bo‘lsa, naqshlarni zar bilan tikib to‘ldirishdir. Zardo‘zlikda juda keng rivojlangan bo‘lib, bunda erkaklarning shoxona chonponlari, etiklari, ayollar ko‘ylaklari, oyoq kiyimlar, do‘pillari zardo‘zlikda bilan bezatilgan. Hozirgi kunda esa har xil sovg‘alar va ommaviy zardo‘zlik buyumlari yaratilmoqda.

Badiiy hunarmandchilik turlari haqida ma’lumot

Inson azaldan ham o‘z makonini bezashga, uni ommaviy san’at namunalarini bilan boyishga harakat qilgan hozir ham shunday.

Keyingi yillarda jumxuriyatimizga xalq amaliy san’atining necha o‘nlab turlari rivojlantirilmoqda. Qadimi yodgorliklarni saqlash ularni qayta tiklash, ta’mirlash ishlariga keng yo‘l ochib berilmoqda. Jumladan Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon va Toshkent obidalari qayta tiklanmoqda, ularni tiklashda xalq ustalari jalb etilib, ustalar o‘z shogirdlari bilan birgalikda obidalarga sayqal berishmoqda. Naqqoshlik san’ati ancha rivojlantirilib, turli xil zamonaviy binolarga zeb berish ishlarida keng qo‘llanilmoqda naqqoshlik namunalarini, ayniqsa choyxona, oshxona va madaniyat saroylarida ko‘ramiz. Bunday yangi binolar ko‘rib ko‘zimiz quvonadi, dilimiz yayraydi va zavq oladi. Ganch uyish va gul solish hunari o‘zbek xalq amaliy san’atida katta o‘rin tutadi. Issiq kunlarida oppoq sathli ganchlik devor xonani sovuq tutadi, biroq bezagini ko‘zdan kechirsangiz, o‘sha oppoq va nafis bezaklar qalbingizni isitadi. Darxaqiqat xonadondagi ganch uymakorligi, jihoz yoki naqsh uyni jonlantiib yuboradi.

O‘zbekiston xalq amaliy san’atining juda keng tarqalgan turlaridan biri kulolchilikdir. Milliy tovoq bejirim kosalar, piyola, nafis ko‘za va vazalarga bugungi kunda ham talab katta. Tarix va muzeylariga kirar ekansiz ularga nafis va jozibador, ayniqsa xalq xunarmandchiligi asarlari sizni qoyil qoldiradi. Siz yoqtirgan ayrim san’at turlari bo‘yicha o‘quvchilar kuchini sinab ko‘rishga, o‘z qo‘llari bilan uyiga chiroyli jihozlar, do‘stlariga atab nafis sovg‘alar yasashga o‘rgating. Unda bu ishlarni bajarishdagi zarur materiallar, asbob uskunalarini o‘zingiz tayyorlansangiz bo‘ladi. Materiallarni esa magazin va boshqa savdo tarmoqlaridan xarid qilinishingiz mumkin.

Xar safar ishga kirishishdan oldin barcha kerakli materiallar va asbob uskunalarini tayyorlab, ish joyini saranjom tutish kerak. Ishning eng oddiy narsalarini bajarishdan boshlang O‘quvchilarni mahoratlari oshgandan so‘ng qiyin va murakkab buyumlar yasashga o‘tishlar mumkin. Mehnat odamlar tirikchiligining moddiy va ma’naviy ta’mintoning vositasi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. Ganchkorlik amaliy san’ati o‘zbek me’morchiligining rivojlanishi jarayonida muhim o‘rin tutib kelmoqda Ko‘hna tarix yodgorliklari bo‘lishi asari atiqalar tarixini tekshirish natijasida o‘ymakorlik san’ati ilk bor oddiy paxsa devorlariga ishlanib keyinroq ganchkoriy bezaklarga aylanganligining guvohi bo‘lamiz. O‘rta Osiyo dekorativ xalq amaliy san’ati juda qadim zamonlardan beri, mis, tilla, kumush kabi rangdor metallardan ishlangan nafis buyumlar bilan mashhurdir. Qadimi shaharlar va qo‘rg‘onlarda qozilmalar paytida topilgan mis va zargarlik buyumlari buning isbotidir. Samarqandda o‘rta asrlarda mashhur Registon maydoni yaqinida nodir metallarga badiiy ishlov beruvchi xaly ustalari mahallasi “Zargaron” mavjud bo‘lib

maxsus xovlilarda ustalar o‘zlari tayyorlagan noyob san’at asarlarini va buyumlarini sotib xayot kechirganlar. Buxorodagi Misgaron va Zargaron savdo rastalari ham metalga badiiy ishlov berish san’atining O‘rta Osiyodagi qadimdan rivojlanib kelayotganligining isbotidir.

Xozirgi davrda ham O‘zbekistonda metalga ishlov berish, ayniqsa misgarlik san’ati keng rivoj topmoqda. Buxoro va Xiva shaharlarida ishlab turgan maxsus xalq amaliy san’ati maktablarida noyob asarlar turli jihozlar va turmush buyumlari ko‘plab tayyorlanmoqda. Amaliy san’atining yog‘och o‘ymakorligi turi dunyo xalqlarining ko‘philibida qadimdan mavjud bo‘lib, o‘zining boy an’analariga ega yog‘och o‘ymakorligi eshik, deraza, qutichalar, ustinlar, panjalar va turli o‘yinchoqlarda o‘z aksini topgan. Yog‘och o‘ymakorligi Muzika asboblarini bezashda ham alohida o‘rinni egalaydi. Bu o‘ymakorlikning ko‘pgina turlari mavjud bo‘lib, ularni bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin tekis-qavariq yoki chuqur tekis: panjarasimon: kesuvchi (yoki kashtali) har biridan farqlanadi.

Tekis qavariq o‘ymakorlik shu bilan xarakterliki uning fonida yog‘och tekisligi bo‘lib o‘ymakorlik rasmi har xil shakldagi qavariq, chuqurliklardan tashkil topadi. Yog‘och o‘ymakorligida har xil shakldagi bolg‘alar: to‘g‘ri nova, baliq sirtli ariqchalik, qayrilgan koj, qiya iskanalar duradgor uchburchagi kesish hamda teshish asboblari kerak bo‘ladi. San’atning bu turi o‘ta injiq ustadan katta mahorat talab etadi. Badiiy kulolchilik arxeologik qazilmalardan ma’lumki, odamlar eramizdan ilgari ham kulolchilik sirlaridan voqif bo‘lgan qadim zamonlardanoq odamlar kundalik turmushda xar xil kulolchilik buyumlaridan foydalangan. Inson asta sekin suv saqlash uchun foydalanadigan ko‘zalarga, xonani yoritish uchun zarur bo‘lgan shamdonlarga ovqatlanishda kerak bo‘lgan kosa tavoqlarga bezak bergen. Avvalo qo‘pol idish tovoq ko‘zalar va xumlar yaratilgan bo‘lsa, bora-bora bu buyumlar nozik, engil, go‘zal va nafis shakllarga keltirilgan. Shu tariqa kulolchilik nasldan-naslga o‘tib, bizgacha bosib o‘tgan davrda xalq ommaviy san’atiga noyob san’at turiga aylanadi. Bu san’atni mukammal o‘rganish uning nozik sirlarini bilish uchun kulolchilikka qiziqishgina kifoya qilmaydi. Kulolchilikning nafis maxsulotlari avvalo tayyorlanadigan loyga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. “Ishlov bersang loyga xo‘p undan chiqar sayqal ko‘p”, deb xalqimiz bekorga aytmagan. Kulolchilikdagi loy oddiy loydan farq qilib, uni kulolchilar o‘zlarining uzoq yillik tajribasi tufayli izlab topishgan. Bu loy qayishqoq va yopishqoq holatda bo‘ladi. Kulol e’tiborini asosan loy tayyorlashga qaratish uni qayta-qayta maydalab mayda ko‘zli elakdan o‘tkazib, juda mayin qilib ishlashi lozim.

Loyni qorishtirish gips yoki albastr plita ustida bajarilsa, ish yana ham osonroq ko‘chadi, sababi loyni qorganda yoki elaganda loy tarkibidagi suvni ganch yoki albastr o‘ziga tortib oladi. Loy pishib tayyor bo‘lgandan keyin bu loyni nam matoga o‘rab qo‘yiladi. Pishgan loy qo‘lga yopishmaydi. Plastilindek egiluvchan bo‘ladi. Ilgarilari kulollar ko‘zalarini va boshqa sopol idishlarini yasashda oyoq charxidan foydalanganlar. Shu charx nafis ko‘zalar va idish-tovoqlar yasashda kulolning haqiqiy ish quroliga aylangan. Xozirgi paytda charxlar elektr toki yordami bilan ishlatilmoqda.

MILLIY HUNARMANDCHILIK

O‘zbek xalq amaliy san’ati qadim zamonlardan beri mag‘rubu mashriqda dong taratib keladi va insoniyat madaniyatida o‘ziga xos muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa hozirgi kunda xalq amaliy san’atiga bo‘lgan e’tibor kuchaymoqda. Xalq amaliy san’ati bu eng nozik san’at hisoblanib, kishilarga estetik zavq shavq bag‘ishlaydi.

Xalq amaliy san’atining har bir turida uchraydigan, har ibr turiga go‘zallik baxsh etuvchi tasviriy san’at turlaridan biri hisoblangan nozik san’at “naqqoshlik” san’atidir. Eng avvalo biz o‘zbek xalq amaliy san’atining turlarini bilib olishimiz shartva zarurdir.

- Kashtachilik;
- Kulolchilik;
- Uymakorlik; (yog‘och va ganch)
- Zardo‘zlik;
- Zargarlik;
- Duppido‘zlik;
- Pichoqchilik;
- Toshtoroshlik;
- Misgarlik;
- Beshiksozlilik;
- To‘qish san’ati:

Ushbu yuqorida nomlari sanab o‘tilgan san’at tarlari bilan badiiy hunarmandlarimiz shug‘ullangan va hozirgi kunda jahonga mashhur bo‘lgan O‘zbek xalq amaliy san’atining rivojlanishiga hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Biz o‘qituvchilar badiiy hunarmand ustalar ijodi bilan o‘quvchilarimizni tanishtirib olishimiz lozim va zarurdir.

Badiiy, hunarmandchilikda, milliy san’atimizda “naqqoshlik” alohida ahamiyatga egadi. Uni xalq amaliy san’atining barcha turida uchratasiz. “Naqqoshlik” san’ati qadimiyligi va o‘lmas san’atdir. Naqqoshlik san’atining qadamiyligiga diyorimiz xududidagi me’moriy obidalardagi devoriy rasm va naqshinkor bezaklar dalildir. Milliy me’morlikda naqsh san’ati asosan ustunlari shiftlarni, tusun va vassalarni, bino devorlarini, gumbaz va mehroblarni bezatishda qo‘llanilgan. Naqqoshlik san’atiga qanchalik to‘sinqilar bo‘lmasin O‘zbekiston me’morligida muhim o‘rin tutib keladi. Va kelmoqda. Naqqoshlik amaliy san’atlaridan biri bo‘lib, tabiat manzarasini ma’lum unsurlar vositasida o‘ziga xos yo‘sinda ifodalovchi bir bir rangli tasvirki, bu tasvirda unsurlarning ma’lum bir satxda o‘zaro uyg‘unligi kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Naqshu nigorlar, naqshlangan uy jihozlarida, uy-joy ro‘zg‘or ashyolarida, devor va ishlangan keng xajmdagi bezaklarda va asbob anjomlarda takrorlanib keladi. Naqqoshlar murakkab naqshlarda o‘zlarining eng yaxshi tilaklarini aks ettiradilar. Naqqoshlik kishida yuksak badiiy didni yuzaga keltiradi. Naqsh ishlangan, me’morlik obidalari, turarjoy binolari kishiga zavq bag‘ishlash bilan birga ruxlanish manbai bo‘lib kelgan.

Bashorat qilishlaricha go‘zal naqshlangan uylarda yashab kelgan kishilar, ruxiy osoyishta bilan yashab, uzoq umr ko‘rgan ekanlar. SHuning uchun ham bu madaniy me’rosimizni davom ettirib kelajak avlodga o‘rgatib singdirib borish, yangi-yangi imkoniyatlarni topib uni boyitib borish katta ahamiyatga egadir.

Xalq amaliy san'ati namunalari bo'lmish Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz yodgorliklari kelajak avlod uchun ijod namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Bu sohada ijod etgan ustalar berish ayniqsa o'quvchilarining kasb tanlashlarida yordam beradi. "Xunarli kishi xor bo'lmaydi" deygan naqlga amal qilib yosh avlodni kasb-hunarga, san'atga oshno qilib tarbiyalash xozirgi kunning dolzarb vazifalaridan birdir

O'zbek xalq amaliy san'atining rivojlanishida, yaratilishida, Xivalik xalq ustasi Abdulla Boltaev mashhur uymakor usta Ota Palvonov, Buxoro xalq ustalari mактабининг исте'dодли вакили уста SHirin Murodov, Namanganlik naqqosh Rahimjon Zohidov, Usta Qodirjon Xaydarov, Nurotalik chevar Oysha Karimova, уста Orтиq Fayzullaev, uymakor Ibrohim Komilov, Toshpo'lot Arislонqulov, Farg'onalik Saidmahmud Norqulov, Saidahmad Mahmudov, уста Mahmud Usmanovlarni o'quvchilarga aytib o'tish ularning ijod namunalarini ko'rsatish, ulardagи san'atnisevish, asrash, ardoqlash go'zallikni sezish ko'nikma va malakalarini oshirishda asosiy rolü hisoblanadi.

Ganchkorlik san'ati

Ganchkorlik san'ati va uning tarixi.

Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksini dunyo me'morchiligidan jumlalan O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg'oniston va boshqa Sharq me'morchiligidan namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa, O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiyligi, kompozisiyasi va ishlanishi uslubi bilan farq qiladi. U Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Marg'ilon, Xiva, Shaxrisabz va boshqa shaxarlardagi tarixiy obidalarni ko'rish va Bezatishda ishlatilgan. Ganch o'ymakoligi san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. 3 asrda Tuproqqa'aning serhasham saroy mexmonlari o'yma ganj bilan bezatilgan. Varaqshadagi topilmalardan 7-8 asrlardagi Buxoro saroy qoldiqlaridan namunalar topilgan.

5-6 asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganj o'ymakorligi yanada rivojlanadi. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo'ddi. 8 asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobdag'i topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari misol bo'la oladi XIV-XVII asrlarda ham binolarning ichki qismlari bezatishda Ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Ganchkorlikning gullab yashnagan davri XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlari do'ladida buyuk ganj o'ymakorlaridan Abdurahimov Hayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Hoji, Hofiz, Usta Ibrohimov, Usta Sarvi, Polvonov Odamvoy, Usta Isdom Usta Ikrom, Usta Jo'ra, va boshqalardir.

Toshkent ganchkorlik mактаби ham o'ziga xosdir. Bu mактабда naqshlar jozibadorligi bilan ajralib turadi. Toshkent ganchkorlik mактаби namoyondalari safida Usmon Ikromov, Toshpo'lat Arislонqulov, Mahmud Usmonov, Anvar Po'latov, Umar Tohirov, Mirvohid Usmonov kabi qator etuk ustalar bor.

Samarqand butun dunyoga mashhur eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, erda ishlangan naqshlarning har biri o'ziga xos mактabga ega. Boshqa ganchkorlik mактаби naqshlaridan ajralib turadi va Toshkent naqshlariga o'xshab ketadi. Usta Anvar Muminov, Usta Tursunboy Ismoilov Shamsiddin G'ofurov, Quli Jalilov va boshqalar Samarqand mактаби ustalardir.

Har qanday binoni bezashda avval uning tuzilishiga mos ganch uymakorligi turini ahamiyat egadir. Ganch uymakorligi, yirik uyma, chuqur uyma yassi uyma, qirma zaminini ko‘zguli uyma zamini rangli uyma, chizma pardoz, panjarasimon uyma, panjara hajmli uyma turlaridan iborat. Eng ko‘p uyma yassi uymadir.

Naqsh va uning turlari

Naqshlar buyumga, devorga yoki qanday joyning bezatilishiga qarab o‘ziga xos turlarga bo‘linadi. Naqsh-arabcha tasvir, gul degan ma’noni anglatadi. U elementlari ma’lum tartibda takrorlanadigan qush, hayvon o‘simliklar, geometrik shakllar va boshqalarning ma’lum tartibda takrorlanadigan qush, hayvon takrorlanishdan hosil qilingan. Ganch uymakorligida ishlatiladigan nashqlar mazmuniga ko‘ra o‘simliksimon, geometrik naqshlarga gulli guruhi, ramziy va boshqa turlarga bo‘linadi. O‘simliksimon naqsh tabiatdagi barg, band, daraxt shakllari asosidadir. Gulli guruhi o‘simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topgan.

Ramziy naqshlar kabutar, o‘rtoq bolg‘a, davlat gerbidan tashkil topadi.

Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni bezar ekinlar, zavq olish bilan bir qator ular orqali o‘z orzu umidlarini ifoda etganlar. Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali Ibn, Al Xorazmiy, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolan o‘ziga tortuvchi, tabiatning go‘zal manzarasiga monand naqshlar bilan bezashga chiqaranlar. Naqqosh ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o‘rganib, uylarni ajoyib naqshu nigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam ruhiy osoyishtalik og‘ushida bo‘lishi, uzoq umr ko‘rinishini donishmand bobolar asrlar davomida tajribada sinaganlar.

ZARDO‘ZLIK SAN’ATI

Yosh avlodning har tomonlama kamol topishda estetik va badiiy tarbiya alohida o‘rin tutadi. Bu tarbiyani amalga oshirishda maktablar va maktablardan tashqari muassasalarda xalq amaliy san’atining keng tarqalgan turlaridan naqqoshlik, kulolchilik, misgarlik, ganchkorlik, yog‘och uymakorlik, kashtachilik qatori milliy zardo‘zlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Halqimizda quyidagi naqllar bor: “Hunardan risqing unar”, “Hunari yo‘q kishining, mazasi yo‘q ishining” Respublikamizda ijtimoiy -iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning assosiy omili bo‘lgan mutaxassis kadrlarni tarbiyalashninig asosiy yo‘riqnomasi 1997 yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturida” kasb-hunar ta’lim tizimini yangilashga katta e’tibor berildi.

Hozirgi kunda xalq amaliy san’atining eng ommaviy turlaridan biri bo‘lib borayotgan zardo‘zlikdan umumta’lim maktablari, o‘quvchilar uylari va saroylaridagi to‘garaklarda ish olib borilmoqda, lekin hozirgacha umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarda zardo‘zlik to‘garaklari ishini rejali amalga oshirish uchun xatto maxsus dassturning yo‘qligi ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Zardo‘zlik san’atiga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish, o‘quvchilarga zardo‘zlik san’ati va uning turlarini, har xil kompazisiyalar chizishni o‘rganish, ularda san’atga xos ko‘nikma va malakalarni shakkantirish go‘zallikni xis qilish, mehnatga muhabbatni tarbiyalash va kelgusida ularning kasb tanlashga yordam beradi.

Zardo‘zlik to‘garagi mashg‘ulotlari o‘quvchilarining yoshi, qobiliyati va bilim darajasini hisobga olib, kichik o‘rta va katta guruhga bo‘lib o‘rgatiladi.

Bir yillik mashg‘ulotlar uchun kichik guruhda 144 soat, o‘rta va katta guruhlarda 216 soatdan vaqt ajratiladi.

Mashg‘ulot o‘tadigan xona yorug‘ va toza bo‘lishi kerak: sinf taxtasi, har xil stendlar, ko‘rgazmali tayyor liboslar, kerakli material-xom ashyolar bo‘lishi lozim.

Zardo‘zlik to‘garagini tasviriy san’at o‘qituvchisi zardo‘zi ustalar olib borishi mumkin. Qatnashuvchilarni guruhlarga bo‘lishda har bir guruhda 5-6 ta o‘quvchi bo‘lgani ma’qul. O‘quvchilarni zardo‘zlikda ishlataladigan naqsh kompozisiyasin ishlashda naqsh usullarini chizig‘i o‘rganish orqali ularning mustaqil naqsh tuzish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ma’naviy go‘zallikni his qilish va oldingi mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlashga erishiladi.

Zardo‘zi naqsh kompazisiyasi ishlash uchun bir necha naqsh kompazisiyasi chizib mashq qilinadi va eng yaxshisi tanlab olinadi. Yupqa qog‘oz yordamida kartonga yoki charmga tushiriladi. So‘ngra gulbo‘ri qilinib, yoki qirqiladi. Mashg‘ulot savol-javob, suhbat shaklida va amaliy ish tarzida olib boriladi, to‘garak rahbari sinf taxtasidagi naqshni o‘quvchilarga tushuntirib, ulardan kamida 4-5 tasini xohishiga qarab naqsh elementlarini chizdirib ko‘riladi kamchiliklar to‘garak rahbari tomonidan to‘g‘irlanadi va maslahat beriladi.

Kashtachilik san’ati

O‘zbek milliy kashtachiligi amaliy san’atning eng qadimiylari turlaridan bo‘lib, u halqning o‘z turmushini go‘zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san’ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuxrat qozongan. O‘zbek xalq ustalari tomonidan tikilgan kerpech, so‘zana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab kabilalar GFR, Belgiya, Amerika, Hindiston, Afg‘oniston kabi xorijiy, shuningdek mamlakatimizning Farg‘ona vodiysining xonardonlarida emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolganligi hech kimga sir emas.

XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Bunga misol qilib 1467 yili Kamoliddin Behzod “Zafarnoma”ga ishlagan “Temur taxtda” miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirganligini ko‘ramiz. XIX ikkinchi yarmiga kelib kashta tikish mashinalari ixtiro qilindi va kashtachilik karxonalariga asos solindi. Mashinalarda kashta ishlab chiqilgach uning badiyiligiga putur etkazildi. Qo‘l kashtalari unitila boshlandi. O‘zbek milliy kashtachilagini rivojlantirish yosh avlodga milliy ma’naviyatimiz biri bo‘lmish san’atimizni o‘rgatish biz o‘qituvchilarining burchimiz ekanligini tushingan holda kelajagimiz bo‘lgan yoshlarga kashtachilik namunalarini o‘rgatishimiz kerak va zarurdir.

Kashta va kashta iplari

Kashta san’atning bir turi. Kashta kiyimlarni, ro‘zg‘or buyumlarini bezatishda, ro‘zg‘or buyumlarini tayyorlashda qadimdan buyon qo‘llanib kelingan. Kashta tikishda igna, ilmoqli bigiz, turli rangdagi iplardan, ilmoqsiz bigiz, angishvona,

qaychi, to‘g‘nag‘ich va chambaraklardan foydalaniladi. Turli ranglardagi ip, igna, ilmoqli bigiz bilan mato, charm, trikotaj, gazlamalarga qo‘lda yoki mashinada naqsh yoki tasvirlar tikeladi. Kashta-ipak, paxta, zig‘ir, jun, kamyoviy tolalardan tayyorlangan iplar, mayin sim, zar ip, xom charmdan tayyorlangan ensiz tasmalarni tikib, munchoq, marjon metall pilakchalar, nodir toshlar, rangli shishalardan tayyorlangan munchoqlar qadab tayyorlanadi. Har bir xalqning kashtado‘zlikda qadimdan rivojlanib kelayotgan o‘z an’analari, badiiy uslublari mavjud.

Kashta tikish uchun ishlatiladigan bigiz ilmoqli, yog‘och dastali bo‘ladi. Charm yoki kartonga kashta tikish uchun ilmoqsiz bigiz bilan teshik teshib, igna bilan tikeladi. Chambarak yog‘och taxtadan aylana, to‘rtburchak, kvadrat shaklida yasaladi. Kashta tikishdan oldin gazlama, ip, igna kabilalar tanlanadi. Tikish qulay bo‘lishi uchun ipning uzunligi 50-60 sm, qaychi o‘tkir, kichik (10-12 sm uzunlikda) bo‘lishi kerak. Chambarakdan foydalanganda angishvona shart emas. Kashtaning ko‘pgina turlarida chambarak ishlatilmaydi.

Bezak buyumlari: palak, so‘zana, dastro‘mol, hamyon kabilarning o‘zlariga munosib kashta gullari va shu kashtalarning tikish usul va uslublari mavjud. Kashta tikishda andoza va har xil nusxalardan keng foydalaniladi. Tasvirlarni andozadan gazlamaga ko‘chirishning juda ko‘p usullari bor.

1. Qog‘ozga chizilgan gul chiziqlari ustidan igna bilan bir me’yorda teshib chiqiladi, keyin andoza mato ustiga qo‘yiladi va matoning rangiga qarab ko‘mir, qurim, g‘isht yoki bo‘r kukuni sepiladi.
2. Movut, baxmal, jiloli moyi kabi matolarga andoza qo‘yib, naqsh gul chiziqlari ustidan ko‘klab chiqiladi, so‘ngra qog‘oz sekin yirtib olinadi va kashta tikeladi.
3. Nusxa ko‘chiriladigan qog‘ozdan foydalaniladi.
4. Yupqa gazlamalarga nusxa ko‘chirishda shisha taxtasi ustiga andoza, uning ustidan gazlama qo‘yib, shisha ostidan lampa tutiladi. Ko‘ringan tasvir qalam bilan chiziladi. Kashta sirtida tugun bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbek kashtado‘zligi qo‘shti o‘lkalarining xalqalari kashtado‘zligi ta’sirida asrlar davomida boyigan, rivoj topgan. O‘zbek kashtalarida Fors, Tojik, Qozoq, Turkman, Rus, Avg‘on, Xind, Xitoy, Ukrain kashtado‘zlarining uslub va usullari uchraydi. O‘zbek kashtalarida geometrik shakllar, o‘simliksimon naqsh va shakllar, tasvirlar ko‘proq uchraydi. Qozoq, Qirg‘iz, Turkman kashtalarida mol shoxini eslatuvchi tasvirlar ko‘p. Rus kashtalarida o‘simlik, geometrik shakllar bilan bir qator meva va qushlarning tasviri ko‘proq uchraydi. Qo‘lda tikiladigan kashtaning ikki turi mavjud.

1. Bezzatiladigan matoning arqon va o‘rish iplarini sinab kashta tikish.
2. Matoga tasvir chizib kashta erkin tikeladi.

Arqon va o‘rish iplar kesishtirib to‘qilgan mato (mota polotno)ni iplarini sanash qulay. O‘zbekistonda sanama kashtaning iroqi turi mavjud. Undan foydalanib jiyak, iroqi do‘ppilar sochiq tikeladi. Erkin kashtani har qanday matoga tikish mumkin. O‘zbekistonda belbog‘, qo‘l ro‘molcha, sochiq, yostiq jildi, dasturxon, hamyon, kiyimlarning cho‘ntagi, yoqasi, etagi kabilarga, do‘ppi, tun, oyoq kiyimlariga kashta tikish qadim zamonlardan buyon davom etib kelmoqda. Belbog‘ qadimdan tikelgan. Uni shoyi, satin, atlas kabi gazlamalardan qo‘lda yoki mashinada kashtali qilib

erkaklar belbog‘ taqishgan. Hozir ham to‘y bola, kuyov bolalar albatta belbog‘ taqadi.

Belbog‘ning 6 ta vazifasi bor.

1. Uzoq safarga chiqanda belbog‘ga non bog‘lab olishgan, demak u dasturxon.
2. Bozor borganda bozordan olgan mahsulotni belbog‘ga tugib kelganlar.
3. Belbog‘ni do‘ppi ustidan salsa qilib o‘raganlar.
4. Dalada ishdan charchab, xorib chiqib qo‘l betni yuvib belbog‘ bilan artganlar.
5. Belbog‘ belni mustahkam va issiq saqlash uchun belga bog‘langan.
6. Safarda yurgan paytlarda belbog‘dan joynamoz sifatida foydalanib, uni ustida namoz o‘qish mumkin.

Kashta iplari

Kashta iplari: paxta, ipak, zig‘ir, jun tolalaridan tayyorlangan iplar, mayin sim, zar iplar, xom charmdan ensiz qilib kesilgan tasma bo‘lishi mumkin.

Mo‘lina-yuqori sifatli paxta tolasidan tayyorlanadi. Mo‘lina 6 yoki 12 qavatli qilib, 10,20 metrli kalava shaklida ishlab chiqariladi. Ipak iplar tabiiy va kimyoviy tolalardan tayyorlanadi. Bu iplar oq yoki bo‘yalgan bo‘lib kalava qilingan, g‘altak yoki qog‘oz patronlarga o‘ralgan 50,100,200 metr uzunliklarda ishlab chiqariladi. Iris – Yuqori sifatli paxta tolasidan tayyorlangan Yuqori sifatli ip bo‘lib, 2 qatli qilib ishlab chiqariladi.

Bu ip bilan qalin, dag‘al kashtalar tikiladi. Kashta tikish uchun ishlatiladigan ip qancha mayin bo‘lsa, kashta shuncha nafis, chirolyi chiqadi. Mahalliy aholi pilladan kashta tikish va jamalak tayyorlash uchun ip yigirib, har xil ranglarga bo‘yab ishlatadilar.

O‘zbek milliy kashtachiligi

O‘zbek milliy kashtachiligi qadim-qadimdan buyon davom etib kelmoqda. Kashtado‘zlik har bir viloyatda, tuman va qishloqlarda bir-biridan farq qilib rivojlanib borgan.

Masalan Buxoroliklar zardo‘z to‘n, do‘ppi va bezak buyumlari bilan, Chust, Marg‘ilon va bezak do‘ppisi bilan, Qashqadaryoliklar kashtali va quroqlardan tikilgan so‘zanasi bilan, Samarqandliklar kashtali ro‘molcha, ko‘ylak va urgut chapon (to‘n)lari bilan mashhurdirlar. Buxoro zardo‘zlari tikkan to‘n, do‘ppi, tuqli, so‘zana, palaklar, tumor va hamyonlar jahonga tanilgan va jahon bozoridan farhli o‘rin olgan. Qashqadaryoliklar, o‘zbek ayollari quroqlardan chirolyi so‘zana, yostiq jiddlari, ko‘rpacha, igna qadagich, oyna xaltalar tikkanlar. O‘zbek kashtali ko‘ylaklari, belbog‘ va ro‘molchalari, zar tikilgan salsa-yu, belbog‘lar, bezak buyumlari xalqimizning ko‘rki va faxridir. Ko‘ylaklarni engi, yoqasi, etagi va ko‘krak qismilariga, to‘n chetlariga, engiga, yostiq jildi o‘rtasi va chetlariga, lozimlarning oyoq qismiga har turli kashtalar tikish mumkin.

Yostiq jiddlarini turli rangli gazlamalar bo‘lakchalaridan kesilgan quroqlar bilan bezak tikish mumkin. Divan, krovatlarni, radio, televizorlarni ustini yopib qo‘yish uchun yoping‘ichlarga ham turli xil naqshlar, gullar tikish mumkin. Dasturxon, choynak yopg‘ich, beshik yopg‘ich (gavorapo‘sh) deraza-eshik pardalarini ham o‘ziga xos kashtalar bilan bezab tikish mumkin. Hozirgi texnika rivojlangan davrda so‘zana, palaklar, ayrim kiyimlarga kashta tikish maxsus mashinalar yordamida turli-tuman kashtalar tikilmoqda. Turli-tuman kashta tikish

mashinalari ko‘paygan bo‘lsada o‘zbekning eski kashtalari va kashtachiligi o‘z qadr va qiymatini yo‘qotgan emas. O‘zbek kashtachiligi boshqa millat kashtado‘zlarining usul va uslublari bilan boyib borgan va hozir ham rivojlanmoqda. O‘zbeklar tikadigan iroqsimon qaviq, ruslarning xoj (krest) tikishiga o‘xshaydi, bigiz bilan kashta tikish tojik esa tojik kashtachiligiga xos usuldir. O‘zbek xotin qizlari bigiz yordamida jiyak, joynamoz, so‘zanalar tikadilar. Zardo‘zlik eng avval Hindistonda rivojlangan. Keyinchalik Buxoroliklar ham zar tika boshlaganlar.

Kashtachilik va bezak buyumlari turlari

Do‘ppi va do‘ppi tikish

Do‘ppi –O‘zbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyimi hisoblanadi. Do‘ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o‘rtasida urf bo‘lgan. Do‘ppi musulmon xalqining bosh kiyimi. U boshni tashqi muhit ta’sirlaridan himoya qiladi. U 3 qismdan: tepe, gizak va jiyakdan iborat. Ana shu qismlarning qanday matodan qay tarzda tayyorlanishi, bezatilishi, tikilish usuli va uslublariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Turli joylarda shu erga xos usul va uslubda tayyorlanganidan do‘ppilar ko‘pincha shu erving nomi bilan mashhurdir. O‘g‘il bolalar va erkaklar kiyadigan Toshkent, Marg‘ilon, CHust do‘ppilari sipoligi tufayli keng tarqalgan. Toshkent do‘ppilari sidirg‘a rangli (yashil, qora, qizil, ko‘k kabi) taxir baxmaldan tikiladi. Buxoro, Marg‘ilon, Chust, Urgut do‘ppilari: qora, yashil, jigarrang rangli satin yoki selon kabi matolardan tikiladi.

Do‘ppilar 2 xil usulda tikiladi.

1. Tepasi to‘rburchak bo‘lib, tepasi uchburchaksimon taxlanadigan do‘ppi.
2. Tepasi aylana do‘ppilar.

Do‘ppi andoza bilan bichiladi. Masalan 54-razmerli do‘ppining tepa qismi tomonlari 14 sm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rburchak, gizagi eni 4 sm, uzunligi 56 sm lenta tarzida kesiladi. Gizakni bosh tuzulishiga qarab enini o‘lchamini enli yoki ensizroq qilib olish mumkin. Gizak va tepa qismlar uchun astar avraga nisbatan 0,5-1sm kengroq kesiladi.

Do‘ppining tepa qismi va gizagi astarga choklar tikib chiqiladi (qaviladi). Choklar orasiga piltakach (dastali, diametri 2mm keladigan, uzunligi 15-20 smli po‘lat sim) yordamida pilta joylanadi. Piltalangan gizakka jiyak tikib chiqiladi. Jiyak ensiz qora lenta, yo‘rma, zey bo‘lishi mumkin. Bular o‘riniga satindan tasma (jiyak) tiksa ham bo‘ladi. Gizakka jiyak tikilgandan keyin tepa gizakka ulab tikiladi. Oldin do‘ppi avrasi, keyin astari ko‘klandi. Tikilgan do‘ppi uchburchaksimon taxlanib, astar tomonidan nomlanadi va presslab qo‘yiladi, biror soatdan keyin astar tomoniga suyuq elim surtiladi, yana presslab qo‘yiladi, quritiladi.

Do‘ppi qismlari iroqi kashta bilan yoki zardo‘zlik gullari bilan bezatilgan do‘ppilarni qizlar kiyadi. Do‘ppini nam va changdan asrash kerak. Do‘ppini kiyilmagan paytlarda oq qog‘oz yoki dokaga o‘rab qo‘yish kerak.

So‘zana va palak

So‘zana matoga kashta tikib tayyorlanadigan badiiy buyum. Odatda xonani bezash uchun devorga osiladi. Satin, shoyi, baxmal singari matolarga turli choklarda kashta tikib tayyorlanadi. Matoning rangidan kashta zamini sifatida foydalanish bilan palakdan farq qiladi. So‘zana o‘tmishda kelinlarning eng muhim sepi

hisoblangan shuning uchun ham har bir xonadonda so‘zana tikilgan. Badavlatroq xonadonlarda baxmal, shoyidan, kambag‘alroq oilalarda ko‘pincha mato yoki oq bo‘zdan so‘zana tikishda foydalanilgan. So‘zananing kashta gullari asosan o‘simliksimon naqshdan iborat bo‘lib ko‘pincha o‘rtasiga doirasimon gul tikiladi, atrofi hoshiyalanadi. So‘zana tikish kasbi O‘zbekiston va Tojikiston teretoriyalarida qadimdan rivoj topgan. So‘zanalarning qadimgi namunalari saqlangan. Muzey va shaxsiy kollektsiyalardagi asosan 19 asrga mansub Nurota, Buxoro, Samarqand, SHahrisabz, O‘ratepa, Toshkent, Farg‘ona va boshqa joylarda tayyorlangan so‘zanalar kashtaning o‘ziga xos tikish uslublari bilan san’anshunoslar diqqatini tortib kelmoqda. 20- asrda ayniqsa 40-yillardan keyin so‘zanalar mashinalarda tikila boshladi. Qashqadryo, Buxoro viloyatlarida so‘zanalarni bigiz bilan yoki har turli quroqlardan foydalanib tikiladilar. Har bir xonadonda mehmon kutish uchun ishlatiladigan ko‘rpa-to‘shaklarni ustini yopish uchun Buxoro, Navoiy viloyatlarida so‘zanalar baxmal, vilbyur, satin kabi matolardan astarli qilib tikiladi. So‘zana atrofi mag‘iz yoki jiyak bilan bezatiladi.

Palak-kashtado‘zlik buyumi bo‘lib uy ichini bezatish maqsadida devorga osib qo‘yiladi. Kashtachilik mahsulotlarining eng yirigi va qimmatbohosи bo‘lib o‘tmishda oq yoki malla bo‘zga kashta tikib tayyorlangan. Palak kashtasida to‘lin oyli osmon aks ettiriladi. Gullarning yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan so‘zanadan farqlanadi. Matoning o‘rtasida yirik oy tasviri qizil, qirmizi, pushti ipak ba’zan esa jun ip ko‘pincha bosma chokda kashta tikilib atrofida oy yog‘dusi sariq ipda ifodalanadi. Ba’zan o‘simliksimon gullar ham tikiladi. Ko‘rinishini jozibador qilish uchun hoshiya orasiga bodom, qalampir shuningdek turli gullar shaklida kashta tikiladi. Kashtado‘zlar palakda ranglarning jilonashiga erishish uchun oy tasvirini ikkiga ba’zan bir necha qismga bo‘lganlar, ichki doira bir rangdagi tashqi doiralarni boshqa-boshqa ranglar bilan bezaganlar mohir kashtado‘zlar ba’zan oy ichini turli xil kashtalar bilan bezab o‘z mahoratlarini namoyish qilganlar. Oy naqsh sidirg‘a rangida ifodalangan bo‘lsa «Oy palak» guli naqshi ko‘p bo‘lsa «Gul palak» deb atalgan sanoat taraqqiyot etishi bilan turli xil rangdor matolar ko‘p ishlab chiqarildi, shuning ta’sirida palaklar o‘rnini so‘zanalar egalab oldi.

Zardevor

Zardevor- uy jihozidir, u sidirg‘a shoyi baxmal, satinka kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor o‘zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo‘yiladi.U zar ip yoki ipak g‘ijimli bo‘lib, eni 40-70 sm, uzunligi mo‘ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

Tikuvchilik

Tikuvchilik kasb turi; kiyim-kechak, ko‘rpa-to‘shak va boshqa buyumlarni tikish.

Tikuvchilik vositalari, material va texnikasi turli davrlarda turli xollarning moddiy va madaniy saviyasi, iqlim sharoiti, ehtiyoj va imkoniyatlari, urf-odatlari zaminida taraqqiy etgan. (kiyim maqolasiga qarang) Axeologik qazishlar natijasida jahonning turli xil mamlakatlar teritoriyasidan topilgan. Tikuvchilar vositalari, kiyim-kechak va tikuvchilikka oid ro‘zg‘or buyumlari bu kasbning barcha xalqlarda qadimdan mavjudligi, o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlarini o‘rganganligini ko‘rsatadi. Tikuvchilik mahsulotlari milliy, mahalliy harakterga ega bo‘lgan mamlakatlar, xalq

va elatlar orasida iqtisodiy, madaniy aloqaning tobora keng yoyilishi bilan tikuvchilik mahsulotlari, vositalari ham o‘z milliy shakl va mazmuni boshqa xalqlarning tikuvchilik maxsuloti va vositalarining progressiv ta’sirila boyita borgan. Natijada muayyan bir xalqning milliy kiyimi boshqa xalqlar uchun andoza vazifasini o‘taydigan tikuvchilik buyumlari dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan xalqlarda ko‘proq o‘simlik tolalaridan chorvador xalqlarda aksariyat jun, teridan tikiladi.

19-asrgacha barcha xalqlarda, jumladan, O‘rta Osiyo xalqlarida ham tikuvchilik ishlari qo‘lda bajarilgan. Ba’zan soxalarda bu kasb namunalari yuksak san’at darajasiga ko‘tarilgan (mos, gulko‘rpa, zarbof tun, choyshab, jiyak va xokazolar). Turli davlatlarda tikuvchilikdan mustaqil kasb sifatida etikdo‘zlik, maxsido‘zlik, po‘stindo‘zlik, do‘ppido‘zlik, kashtado‘zlik, gilamdo‘zlik va boshqa ko‘plab kasb turlari ajralib chiqqan. 19 asrning 2-yarmida Evropa mamlakatlarida tikuvchilikda maxsus tikuv mashinalari keng qo‘llanila boshladi. Tikuvchilik taraqqiyotining hamma davrlarida bichiqchilik uning ajralmas qismi bo‘lgan. O‘rta Osiyo respublikalarida tikuvchilik kustarъ xunarmandchilikdan engil sanoatning yirik tarmog‘iga aylandi. Texnika bilan uskunalar yirik korxonalar tashkil etildi. Mahalliy kosib va xunarmandlar tikuvchilikning yangi texnikasini o‘zlashtirdilar.

Ganch o‘ymakorlik san’atining rivojlanishi.

Ganchkorlik qadimiy san’at turlaridan biri bo‘lib, o‘z aksi xusn jamolini dunyo me’morchiligidagi nomoyon etib kelmoqda. Ayniqsa O‘rta Osipyoda yaratilgan asarlar o‘ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi.

Hozirgi kunda ganch serquyosh O‘zbekistonimizda ardoqlanib, avaylab muxofaza qilinayotgan ko‘pgina yodgorlik obidalariga ko‘rkamlik, go‘zallik baxsh etib turibdi. Ganch o‘ymakorlik san’ati asrlar davomida o‘ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san’atning eng qadimgi o‘rta asrlardagi va XX asrda rivojlanishni ko‘zdan kechirib, o‘rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o‘ymakorligi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Qadimgi ganch o‘ymakorligi ham bo‘lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Varaxshadagi topilmalardan VII-VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan na’munalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o‘simliksimon va geometrik shakllarining o‘yma namunalarini ko‘rish mumkin.

O‘rta Osipyoni arablar bosib olgandan keyin islom dini xukmron bo‘lib qoldi, utirik mavjudotni tasvirlashni taqiqladi. Buni O‘rta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko‘rish mumkin. Xususan VII-VIII asrlardagi xukmronliklarning Varaxshadagi saroylarda bu san’atning xilma-xil namunalarini saqlangan. O‘zbekistonda ganch o‘ymakorlik san’ati ham juda qadimdan rivojlangan bo‘lib xozirgi kunda ham o‘ziga xos xususiyatlarini yo‘qotmagan. O‘zbekistonda xunarmandlar bo‘limi 1918-yilda tashkil etilgan bo‘lib uning asosiy maqsadi xunarmandchilik bo‘yicha izlanishlar olib borish, iqtisodiy statistik malumotlarini qayta ishlab chiqish, ishlab chiqarishga tarqatish, maktablarda tashkil qilingan o‘quv ustaxonalarini tiklash, muzeylar, xunarmandlar birlashmasini tashkil etish va boshqalar edi. 1918-1920 yillarda xunarmandlar uyushmasi, Toshkentda o‘lkashunoslik xunarmandlariga o‘quv namunaviy ustaxonalari va xunarmandlar bo‘yicha muzey tashkil etildi va ganch o‘ymakorlar, naqqoshlar, yog‘och o‘ymakor ustalar ajoyib ishlari bilan qatnashib ko‘pchilikka manzur bo‘ldilar.

O'zbekiston xunarmandlari o'z ishlari bilan 1925-yilda Parijdan keyin Leyptsigda, 1927-yilda jaxon bo'yicha, 1937-yilda Parijda «San'at va texnika xozirgi kunda» degan ko'rgazmalarda «Gran pri», ikkita kumush medal va bitta oltin medal bilan mukofotlandilar. O'zbekistonlik ganchkor ustalar arxitektura yodgorliklarini, murakkab muqarnoslarni, nozik ganch o'yma ishlarini qayta tikladilar. Ular Minorai Kalon (XII asr), XVII asrda qurilgan Sherdor, XVII asrda qurilgan Abdulazizzon madrasasini va shunga o'xshash arxitektura yodgorliklariga qayta xayot baxshida etdilar. Bu murakkab ishlarda respublikamizdagi ganchkor ustalar o'z kuchi, quvvati va bilimini ayamadilar.

Ular Buxorolik ganch o'ymakorlar - usta Shirin Murodov, shoir Ibodov, Abdurahim Xayotov, Samarqandlik Rashid Jalilov, Shamsiddin G'ofurov, Abdurashid Jalilov, Akrom Umarov va bo'shqa ko'pgina kamtarin ganch o'ymakorlar o'z kuch va g'ayratlarini ayamadilar.

Toshkentda 1947-yilda me'mor A.Muxamadamin boshchiligidagi Kurant binosi qurildi bu qurilmani bezashda usta Shirin Murodov qatnashdi. U naqsh kompozitsiyalarini yuqori badiiylik bilan o'yib bajardi. Ganch o'ymakorlik ishlari butun bino arxitekturalariga juda mos tanlangan. Kurant binosining sharafa, ustunlari, panjaralari o'yma ganch bilan bezaldi. Sharafaning «Muqarnas» va «Iroqi» turlari bajarildi. Har bir panjaraga aloxida kompozitsiya chizilib atroflariga moslab zanjir hoshiya berildi. Hozirgi kunda ham Toshkent kuranti shaxarga aloxida chiroy bag'ishlab turibdi. 1940-yilda teatr binosining qurilishi boshlanib 7-yilda bitkazildi. O'zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy tavaludining 500 yilligiga atab xuddi shu kuni mutafakkirning nomi berildi. Teatr binosini zamonaviy estetik talablariga asoslanib o'zbek milliy an'analarini saqlagan holda xalq hunarmand-ustalari bunyod etdilar. Teatrning bezak ishlariga barcha shaharlardan ustalar, naqqoshlar, rassomlar, ganchkorlar, toshtaroshlar va boshqalar kelishdi. Bezak ishlarida Akademik Jumaev eskizi bilan teatrning fasadi, (tashqi ko'rinish) eshikdan kiraverish joyi (foisi) va tomosha qilish zali (mexmoxonasi) ni T.Asrlonqulov bajardi. O'zbekistondagi ganchkor ustalarini bir joyga yig'ib xar bir viloyatni o'ziga xos milliy uslubi asosida bezash, bezalgan xona teatrning arxitektura badiiy obraziga mos tushishi kerakligi haqidagi masalani qo'ydi.

Bu Xiva, Termiz, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Toshkent zallaridir. Bulardan Xiva va Termiz zallari qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Buxoro, Toshkent, Farg'ona va Samarqand zallari esa zamonaviy xalq an'anasiha mos bo'lgan ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan.

Xiva zali. Ganch o'ymakorlik ishlarini Xivalik ustalar S.Xudayberganov, K.Polvonov, B.Bobojonov, R.Masharipov va uning shogirdlari bajargan bo'lib qadimiyligi uslubda bezatilgan. Bezaklar asosan medalbyoon shaklida qilib o'yilib Xivadagi koshinga o'xshab ketadi. Bu o'yma uncha chuqur bo'lmay juda mayda o'yilgan xuddi yog'ochdan o'yilganga o'xshaydi.

Termiz zali. Bu zalning naqsh kompozitsiyalarini Usta Shirin Murodov Termiz usulida mo'ijallab chizgan. O'yma ishlarini Usta Shirin Murodov, Ne'matov va boshqalar bajargan. XII asr Termiz saroyidagi ganch o'ymakorligini eslatadi.

Farg'ona zali. Ganch o'ymakorligi va naqsh kompozitsiyalarini Quqonlik Sait Maxmud Norqo'ziev bajargan. O'yma ishlariga Jalil Marasulov va ko'pincha

Farg‘ona ustalari qatnashgan. Farg‘ona zalining shifti qovurg‘ali qilib ganch o‘ymakorligi kompozitsiyalari bilan bezatilgan. Bu Farg‘ona vodisidagi an’anaviy badiiy uslubni anglatadi.

Samarqand zali. Ganch o‘ymakorligi ishlari kompozitsiyalarini davlat mukofoti lauriyati Q.Jalilov va boshqalar bajargan. Bu zal kompozitsiyalarida, geometrik ornamentlari, namoyon, ruta zanjira kompozitsiyalarining ajoyib namunalari ishlangan. Shiftga geometrik naqsh grif o‘yilib oralariga o‘yma ismli naqsh kompozitsiyalari bajarilgan.

Buxoro zali. Bu zalning naqsh kompozitsiyalarini va o‘ymalarini Usta Shirin Murod bajargan. U Buxorocha milliy va zamonaviy usulni qo‘llagan.

Uning oyna zaminli ganch o‘ymakorligi xonani yanada keng qilib ko‘rsatadi. Unda ajoyib va murakkab sharaflar, qandillar namoyonlar kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Keksa Usta Shirin Murodov Buxoroliklarga xos «tabaqa pardoz» deb ataladigan murakkab uslubni bizgacha etkazib berdi. U ajoyib qandil ishlab uyning shiftiga qubbali qilib muqarnas ishladi.

Toshkent zali. Toshkent zaliga Toshpo‘lat Arslonqulov kompozitsiya chizdi. Guldasta, marafa, namoyon, rutalar yuqori relbefli qilib bajarildi. Toshpo‘lat Arslonqulov o‘yma naqsh solish texnikasi, «muqarnas», «majnuntol», «choka pardoz», «zanjiri», «shoxbarg» kabi uslublarini amalda qo‘llab, taraqqiy ettirilishi bilan birga «chor burchak», «quvacha islimi», «palak islimi» kabi kompozitsiyalar bilan bezadi. 1961-yil Alisher Navoiy nomidagi katta Akademik opera va balet teatrining ganch o‘ymakorligi bezaklari qayta tiklandi.

Xorazm o‘zining qadimiy yodgorliklari bilan jahonga mashhurdir.

Xorazmdagi Islomxo‘ja minorasi, Faxriddin Rozi maqbarasi, Juma masjidi va boshqa tarixiy obidalar O‘rta asr SHarq me’morchilik san’atining go‘zal namunalaridan biridir. Ular o‘zining soddaligi va naqsh motivlarining ulug‘vorligi bilan dunyoga dong taratgan.

Xivadagi tarixiy obidalarning har bir shaxar me’morchilik ansamblining tarkibiy qismi bo‘lsa-da, ammo ularning har qaysisi o‘ziga xos takrorlanmas san’at asaridir.

Juma masjidining naqshlari rang-barangligi bilan kishini qoyil qoldiradi, o‘yma marmar plitalar, sirlangan g‘ishtlardan terilgan naqshni devorlar, mozaikadan ishlangan shakllar tokchalar, devorlarga solingan tasvirlar o‘zoro uyg‘unlashib yaxlit badiiylik hosil qiladi.

Xorazmnning badiiy arxitektura yodgorliklari XIX-XX asr boshlarida Xiva shaxrida bir joyda yaxlit holda to‘planib qolganini ko‘ramiz.

Xorazmnning badiiy yodgorliklari XIX-XX asr boshlarida Xiva shahridagi pishirib ishlangan naqshlarni ko‘rsak o‘ziga xos shakllaridan iboratligi, naqshlarning o‘ziga xos aylanma spiralsimon kompozision tuzilishiga egaligi hamda novdalarning juda nozik chizilishini, o‘yilishi, chiziqlarning bir-biri bilan kesib o‘tganligi jim-jimadorligi bilan ajralib turadi. Xorazm san’atida gullarni spiralsimon tuzilishi juda qadimda qo‘llanib kelganligini ko‘rish mumkin. Eramizdan oldingi III asrlarda qurilgan Tuproq qal’a saroyi xonalaridagi bezaklarda ko‘rish mumkin.

XIX asrda Xorazm spiralsimon tuzilishidagi naqshlar bilan yodgorliklar bezatilgan.

Xorazm me'morchiligining manzaralida geometrik naqsh keng o'rin olgan bo'lib, O'zbekistonning boshqa viloyatlariga qaraganda o'ziga xosligiga ega. Lekin ular juda kam farq qiladi. Ayniqsa, o'simliksimon naqshlar spiral shaklida aylanma harakatchanligi, dinamikligi bilan farq qiladi. Xorazmda «madoxil», «turunj», «qalampir» shaklidagi naqsh kompozitsiyalari va boshqalar keng o'rin olgan. Xorazm ganch o'ymakorligining naqsh kompazitsiyasi so'zanani eslatadi. Sirli koshin naqshlariga qaraganda ganch o'ymakorlik, yog'och o'ymakorlik Xorazmda uncha rivoj topmagan bo'lsada lekin o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa shaxarlarda o'yilgan naqshlardan farq qiladi. Ganch o'ymakor ustalar ko'p bo'lsa-da, lekin ba'zilari o'ymaga moslab naqsh kompazitsiyasi chiza olmas edilar. Shuning uchun ular maxsus naqsh chizib beruvchilarga murojat qilar edilar.

Girix kompozitsiyasi chizib beruvchi ustani girixkor usta deb yuritar edilar. Bunday Xorazm ustalaridan Xudaybergen Polvonov, Eshmuxammad Xudayberdiev, aka-uka Vafo va Bolta Mirzaevlar, Xojiniyoz Saidniyozov, Matyoqub Jonibekov, Xudaybergen Matchanov va boshqalar bor edi.

Xivalik qadimiy ganch o'ymakor ustalar faqat ganch o'yish, naqsh chizishni bilibgina qolmay, balki ular musiqa, sheriyatni, tarixni yaxshi bilganlar va nixoyat madrasada o'qiganlar. Bunday ustalarni xaqiqiy ganch o'ymakor usta hisoblaganlar.

Ular musiqa asboblarida chalishni, talim olgan va ko'p yillab amaliy ishlar qilganlar.

Xorazm ganch o'ymakorligi san'ati tobora yuksalib bormoqda. Hozir Xorazmda qurilayotgan ko'p qavatli salobatli binolar ganch naqshlari bilan bezalmoqda. Ganchkorlik san'atini ajoyib namunalarini muzeylarda, ko'rgazmali xonalarda, maishiy binolarda, kofe, restoran, zavod, fabrika, teatr hattoki turar joylarda ham uchratish mumkin.

Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksining dunyo me'morchiligidan jumladan. O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Avg'oniston va boshqa sharq me'morchiligidan namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiiyligi, kompazitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda ganch serquyosh O'zbekistonimizda ardoqlanib avaylab muhofaza qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalariga ko'rakamlik, go'zallik baxsh etib turibdi.

Ganch o'ymakorligi san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san'atning eng qadimgi, O'rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishni ko'zdan kechirib, o'rganib chiqsak, bu davrdagi ganch o'ymakorligi bir-biridan ancha farq qiladi. Qadimgi ganchkorlik hajviy bo'lib realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko'pincha odamlar, xayvonlar, qushlar tasviri ishlangan.

X-XI asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirini aks ettiradigan naqshlar paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan tashqi qismiga ham qo'llanila boshladi. XIII asrda ganchkorlik san'ati yanada rivojlandi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari misol bo'la oladi.

Toshkentda ganch o'ymakorligi juda qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at turlaridan biridir.

Toshkent ganch o‘ymakorligi maktabida Usmon Ikromov, Usta Toshpo‘lat Arslonqulov, Maxmud Usmonov, Hayot Abdullaev, Ziyodulla Yusupov, Toxir Umarov kabi qator etuk ustalar etishib chiqqanlar. 1918-1920 yillarda hunarmandlar uyushmasi Toshkentda O‘lkashunoslik hunarmandlar tashkiloti, o‘quv na’munaviy ustaxonalar va hunarmandchilik ishlari bo‘yicha muzey tashkil etdi. O‘zbekiston hunarmandlari o‘z ishlari bilan 1937-yilda Parijda «San’at va texnika hozirgi kunda» degan ko‘rgazmalarda ikkita «Gran pri» ikkita kumush medal va bitta oltin medal bilan mukofotlandilar. 1947-yili Toshkentda memor A.Muxhammadjon boshchiligidagi Kurant binosi qurildi. Bu binoni bezashda Usta Shirin Murodov qatnashdi.

O‘zbekiston me’morphiliga katta xazina bo‘lib qo‘shilgan O‘zbekiston Davlat opera va balet katta teatri 1947-yili akademik arxitektor Aleksey Shusevning loyihasi va rahbarligi ostida qurib bitkazildi.

Toshkent ganchkorlik maktabi o‘ziga xos naqshlar nozikligi, aniq simmetrik taqsimga egaligi jozibadorligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek ganchkorlik san’atining mashhur ustalaridan biri Toshpo‘lat Arslonqulov 1882-yili Toshkent shahrida ganch o‘ymakor usta oilasida tug‘ildi. Otasi Arslonqul Nazarov o‘sha davrda mashhur ustalardan biri edi. Arslonqul Nazarov o‘z o‘g‘lini o‘n ikki yasharligida hunar o‘rgatish uchun o‘zi bilan olib yurdi. Unga ganchkorlik sirlarini naqsh kompozitsiyalarini o‘ziga xos pardoz berish yo‘llarini va boshqalarni yaxshilab o‘rgatib bordi. Ayniqsa, choka pardozda ko‘p ishladi. Toshpo‘lat ancha yil otasi bilan yurdi avval u otasiga loy qorib berdi keyin naqshlar zaminini uydi so‘ngra oddiy pardozlarni uydi. XIX asrlar oxirida Toshkent O‘zbekiston ko‘chasidagi Yusuf Davidovning uyini ganch uyma bilan ayvon va mehmonxonasini ota-bola bezaganlar. Toshpo‘lat Arslonqulov biror xonaga kompozitsiya chizar ekan naqsh bitganda qanday chiqishini, zaminini, o‘ymasini uning ingichka yoki yog‘onliklarini, xona yorug‘ligini hisobga olardi va o‘ziga xos pardoz turlarini tanlar edi.

Bu ustalar ijodlarining muhim tomoni shundaki, zamonaviy binolarning balandligi, kengligi va funksiyasiga mos holda zamon talabiga javob beradigan asarlar ijod qilishidir.

Bu san’atkorlarning ko‘plab asarlari jahon miqiyosida o‘zini go‘zalligini ko‘z-ko‘z qilmoqda.

Yog‘och uymakorlik san’ati.

Yog‘och uymakorligi o‘zbek xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog‘och buyumlarga chizib, kesib, uyib ishlanadi. Badiiy san’atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo‘lib, qadimiy sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog‘och uymakorligining rivojlanib o‘ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari O‘rta Osiyoda ham yog‘och uymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning uy ro‘zg‘or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo‘llanilgan. Bu uymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, deraza, ustunlar, har xil to‘sish, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan.

VII asrning oxirigacha mahalliy o‘zbek xalqi ichida yog‘och uymakorlik tez sur’atlar bilan rivojlangan edi.

XI–XII asrlarda xalq amaliy sa’nati yanada gurkirab rivojlandi. Murakkab naqsh turi bo‘lgan geometrik naqsh, ya’ni girih naqshi bezakda yetakchi o‘rinni egalladi. Masalan XII asrga oid yog‘och uymakorligi namunasi Samarqanddagi Shohi–Zinda devorining orasidan topilgan bo‘lib, u o‘zining badiiy nafis va tabiiy ishlanganligi bilan kishini lol qoldiradi.

XIX va XX asrlarda yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik, naqqoshlik va boshqa san’at turlari rivojlanib har bir shaharning o‘ziga hos yog‘och o‘ymakorligi paydo bo‘ldi. Qo‘qondagi Hudoyorxon saroyi, Toshkentdagi N.K.Romanovlarning saroyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi, Marg‘ilondagi Saidaxmadxo‘ja madrasasi, Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa va boshqalarda ajoyib yog‘och o‘ymakorligi namunalari yaratildi.

O‘zbek xalqining eng ko‘zga tashlangan ustalaridan Olimjon Qosimjonov (1878–1942), Sulaymon Xo‘jaev (1866–1946), Maqsud Qosimov va boshqalar ajoyib namunalani yaratdilar. Ular o‘ziga hos yog‘och o‘ymakorligi maktablari yaratib ajoyib shogirdlar etishtirdilar.

Yog‘och o‘ymakorligining o‘ziga hos turli uslub va usullari bor.

Masalan, Marg‘ilonda yog‘och o‘ymakorligini chuqur zaminli yassi o‘ymani qo‘llab kelganlar.

Qo‘qon o‘ymakorligida esa kalta bo‘rtmali, yassi o‘yma ishlatganlar.

Toshkentda esa naqsh bilan qoplangan yassi bo‘rtmali, zaminsiz chizma yog‘och o‘ymakorligi keng tarqalgan.

Xiva yog‘och o‘ymakorligi o‘ymasining monumentalligi, yog‘och tabiiy rangini saqlab qolishi bilan boshqalardan farqlanadi.

Buxoro yog‘och o‘ymakorligi esa o‘yma naqshning jozibadorligi, jimjima naqshlarni oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanishi bilan ajralib turadi.

Tosh va Suyak uymakorligi san’ati

Tosh o‘ymakorligi xalq amaliy bezak san’atining noyob turlaridan biri. Bu san’at kishidan iste’dod va intilishdan tashqari mehnatsevarlik va g‘oyatda zo‘r sabr-toqat talab qiladi. Bu san’atni toshtaroshlik va sangtaroshlik deb ham yuritiladi. Tosh o‘ymakorligi toshni o‘yib, yo‘nib, naqsh yoki biror tasvir ishlash kasbidir. Toshni o‘yib ishlashning chiziqli o‘yma, zanjira o‘yma, panjarasimon o‘yma va hajmli o‘yma turlari bor. Tosh o‘ymakorligida ishlatiladigan materiallar o‘rnini, o‘rtacha qattiqlikdagi va qattiq toshlar ishlatiladi. Yumshoq toshlarga jipstosh, talkoxlorit, ohaktosh, o‘rtacha qattiqlikdagi toshlar oniks, porfir, ohakli marmar, marmar va qattiq toshlarga lazurit, amozon, atag, malaxit, jadent, nefrit, yashma va boshqalar kiradi. Bu toshlardan qozon, ko‘za, lagan, piyola, haykalcha va haykallar tayyorlanadi. Ko‘za, lagan, namoyn va boshqalarga o‘yib o‘simliksimon, geometrik ramziy naqshlar hamda syujetli rasmlar o‘yib ishlanadi. Respublikamizdagi vodiy va tog‘lar uzoq insoniyat taraqqiyotidagi o‘tmishda moddiy madaniyatning o‘chog‘i hisoblangan.

Tosh o‘ymakorligi san’ati gullab yashnamoqda, qo‘ligul ustalar R.Obidov, A.Boltaev, Z.Xudayberganov, H.Rahimov, B.Davlatov, A.Bekjonov, K.Polvonov, Z.Abdulov, K.Ro‘zmetov, Jalol Jo‘raev, Abduraxmon Turdiev, Baqo Kamolov, Bobonazar Jabborov, Abdulla Hayitov, Salimjon Hamidov va boshqalar yaratgan

asarlar xalqqa xizmat qilmoqda. Tosh o‘ymakorlik san’ati noyob san’at turi bo‘lib, yangi zamon nafasi bilan yangicha jilo hamda yangicha go‘zallik kasb etishi shubhasizdir.

Suyak o‘ymakorligi.

O‘zbekiston xalq amaliy bezak san’ati ichida suyak o‘ymakorligi ham san’atning turlari kabi tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Suyak o‘ymakorligi O‘zbekistonda san’atning eng yosh turidir. Suyak o‘ymakorligi Hindiston, YOqtiston, Afrika, Xitoy, umuman sharq mamlakatlarida yuksak darajada rivojlangan.

Suyak o‘ymakorligi juda qadimiy san’at, buni har xil arxeologik topilmalar tasdiqlaydi. O‘rta Osiyoda suyak o‘ymakorligi geografik sharoit tufayli rivojlanmagan. Ammo xalq amaliy san’atining boshqa turlarida (pichochchilikda) qo‘llanilgan. Bular oddiy suyaklardan (qoramolning, echkining suyaklaridan) ishlangan.

O‘zbekistonda suyak o‘ymakorligi 1959-yili kirib keldi. O‘zbekistonda yagona yog‘och o‘ymakor va suyak o‘ymakor usta O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi Ortiq Fayzullaevdir.

Ortiq Fayzullaev yog‘och o‘ymakorligi bilangina shug‘ullanmay, o‘zbek o‘ymakorlari orasida birinchi bo‘lib yog‘och o‘ymakorligini ham chuqr o‘rgandi. U Moskva, Kiev muzeylari va fabrikalariga borib, suyak o‘ymakorligini o‘rganib keldi.

Suyak o‘ymakorligida, – deydi Ortiq Fayzullaev, – “Mamont tishi”, “Morj tishi”, “Fil suyagi”, “Mol suyagi” va shoxlari, otning suyagi va boshqa hayvon suyaklari ishlatiladi.

San’atkor yaratgan asarlarda o‘yma naqshlarni 1-2 qavat qilib o‘yadilar, keyingi loy ishlarida esa uch qavatlari o‘ymalar bajarishga o‘tmoqdalar. Kompazitsiya jixatdan o‘rtacha chuqurlikda o‘yilib, o‘simliksimon, geometrik, gulli girix, xattoki ramziy naqshlar boshladilar. Pardozning xamma turlarini qo‘llaydilar. Ular ko‘pincha yong‘oq, chinor, yog‘ochlarni ishlatadilar.

Qo‘qon o‘ymakorlari esa naqshni bo‘rtmali yassi o‘yma ishlashgan. Toshkentda esa naqsh bilan qoplangan yassi bo‘rtmali, zaminsiz chizma yog‘och o‘ymakorligi keng tarqalgan.

Toshkent yog‘och o‘ymakorlik maktabi. Bu maktabga mansub ustalar qaraganda, o‘yma naqshlarning maydaligi, nozikligi, zaminining kamligi, naqshlarning zichligi hamda badiiy tuzilishi jixatidan o‘ynoqiligi, ya’ni novdalarni spralsimon ishlanib ajoyib shakllar hosil qilishi bilan farq qiladi. Xiva o‘ymakorligi ustalari ko‘pincha qayrag‘och, terak va chinor yog‘ochlarni ko‘proq ishlatadilar. Ular yog‘och rangini tabiiyligini saqlagan holda yuzasiga va zaminiga taxta, zig‘ir yog‘i beradilar. Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabi o‘zining monumentiligi bilan mashxurdir.

Qo‘qon va Farg‘ona yog‘och o‘ymakorligi maktabi.

Qo‘qon ustalari qoshiq, kursiga, rasm va boshqalardan kalta bo‘rtmali yassi o‘ymani, pargori uslubda ishlatib kelib, arxitekturada eshik, ustunlarga yirik chuqr naqshlar o‘rnatib o‘zgacha mifik yaratdilar. Bu maktablar o‘ymalarning manumentiligi bilan farq qiladi.

Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabi terak, yog‘och va bo‘k materiallaridan ko‘pincha foydalanadilar. Ustalar o‘yilgan relefning faqat yuziga to‘qroq rang berib keyin laklaydilar. Marg‘ilon yog‘och o‘ymakorlik maktabi o‘ziga xos milliy ko‘rinishga ega bo‘lib o‘ymaning chuqur zaminli yassi shaklini qo‘llaydilar. Keyingi vaqtida Marg‘ilon ustalari binolarni yog‘och o‘ymakorligi bilan bezashda ishladilar.

Kandakorlik

O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. Kandakorlik deganda metaldan yasalgan badiiy buyumlarga o‘yib yoki bo‘rtik qilib naqsh ishslash tushuniladi.

O‘rta Osiyo shaharlarida kandakorlik san’ati o‘zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkichi o‘rinda turadi.

Kandakorlik san’ati ramziy ifodalarni yangi uslublari hamda g‘oyalarni tarqatish manbai bo‘lib xizmat qilgan. Maxaliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har xil buyumlar yasaganlar. Qadimgi va ilk o‘rta asr kandakorligi asosan tanlangan kumush buyumlarda o‘z ifodasini topdi.

XI asrdan boshlab kandakorlik maxsulotlarini mis hamda II asr boshlaridan birinchi (maxsus mis topilmasi) to‘g‘nag‘ichlar Misr, O‘rta er dengizi, Mesopatamiya, Hindiston, O‘rta Osiyoda keng tarqalganligi aniqlangan. To‘g‘nag‘ichlarda kichik-kichik voqealar, xayvon va boshqa narsalar tasvirlangan. Jumladan Farg‘onada topilgan marosim qozoni 1 ming yillikning o‘rtalarida kandakorlik «xayvonot uslubi» rivoj topganligini isbotlaydi.

IV asrda O‘rta Osiyo janubiy viloyatlarining Aleksandir Makedonskiy tomonidan bosib olinishi tasviri va amaliy san’atning maxaliy san’atlarining tarqatilishiga imkon yaratdi.

III-VIII asrlarda O‘rta Osiyoda kandakorlik yuqori darajada rivojlandi. Qimmatbaxo metallardan qoliplar hamda a’yonlar uchun har hil nixoyatda chiroyliy bezak buyumlari ishlatildi. Bu oltin yoki kumush buyumlarda to‘y tomosha taxtga o‘tirish marosimlari, dunyoviy mavzular, shikor va kurash manzaralari, ishoroligi hamda epik qahramonlar, hayotiy mavjudod, parranda va boshqa tasvirlarni ko‘rish mumkin edi.

IX-XIII asrlarda kumish ishlab chiqarish inqirozga uchraydi, Temur xukmronligi davrigacha buyumlar asosan bronza va misdan taylorlangan.

XIX asr oxiriga kelib kandakorlik buyumlarini yasash va bezash bo‘yicha har bir shaxar, viloyat uchun o‘ziga xos milliy harakterga ega bo‘lgan maktablar ochildi. Kandakorlik texnikasining o‘ziga xos maxalliy xususiyati birinchidan zarbaning chuqur yoki yuzaligida, ikkinchidan naqshlar sirti va zaminning bezagiga qo‘llaniladigan usullardan iboratligidir. Buni turli tuman va viloyatlardagi metal buyumlar barcha belgilarini o‘zaro solishtirishimiz mumkin.

Toshkent XVIII asrning oxirida O‘rta Osiyoning yirik shaxarlaridan edi. Uning Afg‘oniston, Xitoy va Rossiya davlatlari bilan savdo aloqasi juda yaxshi bo‘lgan. Rossiyadan mis, temir, kumush sotib olinar edi.

XIX-XX asrlarda Toshkent ustalari choy idish chiqarish bilan birga chelak, oftoba va boshqa idishlar ishlab chiqara boshladilar. Toshkentga Samarqand, Qo‘qon, Xiva va boshqa joylardan ko‘plab kandakorlar keladi. 1920 yillardan so‘ng kandakorlik

rivojlana boshladi va Toshkentda badiiy ishlab chiqarish o‘quv kombinati ochildi. U erda ko‘pgina kandakorlar tayyorlana boshladi.

Toshkent kandakorlik san’ati shakllarining kattaligi, naqshlarning soddaligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Toshkent kandakorligida yangi xoshiya yo‘llarda asosan o‘simliksimon, «islimi naqsh» (ilon izi) ishlatiladi. Toshkentlik kandakorlar san’at asarlarida tevarak atrofimizni o‘rab turgan 7 narsalarni naqsh orqali aks ettiradilar.

Usta Mo‘min, Abduqori Yusufjon va qizi Zebiniso, Jamila Saidova kabi ustalar Toshkent kandakorlik vakillaridandir.

Samarqand san’at, madaniyat hamda badiiy hunarmandchilik keng rivojlangan yer qirrasidagi eng ko‘hna shahar.

Kandakor usta Kamol XVI asrda Samarqandda yashab o‘tgan U davrda unga teng keladigan usta bo‘limgan.

XIX asrda Samarqandda hunarmanchilik rivojlandi, misgarlik hamda kandakorlikning o‘ziga xos maktablari paydo bo‘ldi. 1924- 1930 yillarda O‘zbekistonning poytaxti Samarqandda misgarlik va kandagorlik yanada rivojlandi. Samarqand kandakorlik buyumlarini pardozlashda gardishga o‘xhash chekmani qo‘llash bilan ajralib turadi. Ustalar naqsh talablarini uziksiz davom etirb boshqalari bilan chirmashgan tanoblarini enliroq qilib ishlaydilar. Ularning naqshlari Xiva, Farg‘ona, Buxoro naqshlariga o‘xshamaydi. Samarqandlik ustalar chor barg gullarni juda ko‘p ishlatadilar.

Usta Ahmad, Salim misgar Usta Oxunjon, usta Xaydar Xo‘ja, Karim G‘ofurov, Karim Axmedov, usta Tog‘ay va boshqalar Samarqand kandakorlik maktabining vakillaridir.

Qarshida kandakorlik maktablari XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo‘ldi.

XIX-XX asrning boshlarida Buxoro amiri yuborgan beklar Qarshini boshqarar edi. Shuning uchun Buxorolik xunarmand va me’morlar Qarshiga yuborilar edi. Qarshi kandakorigi Buxoro tasvirida bo‘lsada, uning o‘ziga xosligi ham bo‘lgan. Masalan Qarshida mis buyumlariga har xil rangdor ishlanmalar qadap, naqshlarni rangdor laklar bilan qoplashgan.

Qarshi kandakorları mis buyumlarini o‘zlari yasab o‘zlari bezaganlar. Ular bunda qolipi usilidan foydalanganlar.Qoplama mis parchalari feruza rang oynalaridan ko‘z qo‘yib. Naqsh zaminlarini rangli laklar bilan bo‘yashgan.

Qarshi kandakorlik buyumlarini bezagan o‘simliksimon naqishlar Buxoro naqshlariga qaraganda oddiyroqdir. Qarshida ham misgarlik kandakorlik bilan birga bajarilgan.

Sa’diy Sharofi Asad, usta Abduqodir Nizomiddin, usta O‘rin, Saloxiddin, Ikromiddin, Xudayberdi Jo‘raev va boshqalar Qarshi kandakorlik maktabi namoyondalaridandir.

Kulolchilik san’ati

Kulolchilik san’ati loydan mo‘jizakor, go‘zallik qilib yaratilgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san’atidir.

Bu qora loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojni o‘z zimmasiga olgan farovonlik, to‘kinlik, rizq-ro‘z, go‘zallikning eng oliy ko‘rinishi san’atining zaminidir. O‘zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an’analar,

shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o‘ziga xos uslubga ega. Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko‘za, lagan, xurmacha, tog‘ora, xum, tandir, buyum, o‘yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlanadigan soha bo‘lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o‘ta qizdirganda toshsimon bo‘lib pishishini, undan xar xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar.

Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulkonda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahoning hamma erlarida bo‘lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo‘lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug‘ullanganlar.

Kulolchilik charxi miloddan avvalgi uch ming yillikni boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug‘ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o‘choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

VIII-XII asrlarda kulolchilik O‘rtta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O‘rtta Osiyoning boshqa erlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O‘sha davrda O‘rtta Osiyo madaniyati tez sur’atlar bilan rivojlandi. Ko‘pgina olim, yozuvchi va mutaffakkirlar, ya’ni Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Ro‘dakiylar etishib chiqdi. Butun dunyoga mashxur bo‘lgan me’morchilik yodgorliklari bunyod etildi. XIII asrda mo‘g‘ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong‘in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san’ati rivovojiga putur ketdi.

XIV asrdan boshlab O‘rtta Osiyo teritoriyasida kulolchilik tez sur’atlar bilan rivojlandi. XIX asrga kelib kulolchilik maktablari tashkil bo‘la boshladi.

O‘rtta Osiyoda suvga bo‘lgan ehtiyoj katta bo‘lgani uchun sopol idishlarni tez sur’atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislana bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar. XIX asrda O‘rtta Osiyoda tojik va o‘zbek xalqlari o‘rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G‘ijduvon, Panjakent, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo‘ldi.

1932 yilda Toshkentda o‘quv ishlab chiqarish tashkil etilib u erda xalq amaliy san’ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. Kulolchilik sir-asrorlarini mashxur kulollar yoshlarga sitqidildan o‘rgatdilar. Bular Rishtonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, Toshkentlik Turob Miraliev, Shaxrisabzlik Rustam Egamberdiev, Karim Xazratqulov va boshqalar edi. Ayniqsa kulolchilik tadbiq etishda O‘zbekiston xalq rassomi, san’atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. U o‘ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san’atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi.

Xorazm kulolchilik san’atiga katta hissa qo‘sghan ustalardan biri Raimberdi Matjanov-Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O‘zbekiston amaliy bezol san’atida alohida o‘rin tutdi. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro va boshqa shaxarlar kulolchilik maktabidan o‘ziga xos yasash usuli, texnalogiyasi, naqsh kompazitsiyasi, koloriti, dinamikligi bilan alohida o‘rin tutadi.

Pichoqchilik san’ati

Pichoqchilik san’ati deganda biz pichoq yasash kasbini tushunamiz. Pichoq bobolarimiz uchun qadimdan tirikchilik vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Hozirgi vaqtida pichoq yasash san’ati xalq amaliy san’ati qatorida e’zozlanib kelinayotir. Nodir pichoqlar yasashda o‘zbek pichoqsoz ustalarining oldiga tushadigan usta kam

topiladi. Pichoq yasash boshlang‘ich paleolit davridayoq ma’lum bo‘lgan. Temir davrida hunarmandchilik paydo bo‘lgan va rivojlangan. Mis va bronzadan pichoq yasash bronza davriga kelib avj olgan. Temirning kashf etilishi pichoqchilik san’ati taraqqiyotida katta burilish bo‘ldi. O‘rta Osiyoda pichoqchilikning eng rivvojlangan joyi arab mamlakatlari bo‘lgan, Ispaniya va Italiyada esa tez o‘sib rivojlanib ketgan

XVI asrda Germaniya, Angliya, Avstriya, Frantsiyalarda pichoqchilikni kasb sifatida ta‘qiqlab, pichoqni oshxonalarda ishlatishgan. XVII asr boshlarida pichoqning ohib yopiladigan, pakki, ustara va boshqa cho‘ntakda saqlanadigan pakkilar yuzaga keldi. Arxeologik topilmalardan ma’lumki, O‘rta Osiyo territoriyasida million yil avval 2000 yillikga oid pichoq namunalari topilgan. Bolalik tepa, Afrosiyob, Varaxsha devorlariga ishlangan rasmlardan ma’lum bo‘ldiki, pichoq uy-ro‘zg‘ordan tashqari harbiy qurol sifatida ishlatilgan. VI-XII asrlarda pichoq yasash rivojlanib uni bezash texnologiyalari o‘zgargan.

XV-XVII asrlarda yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xillari paydo bo‘ldi. Buni Navoiy, Bobur asarlarida ishlangan miniatyuralardan ko‘rish mumkin.

Keyinchalik pichoqchilikning o‘ziga hos maktablari paydo bo‘ldi. Farg‘ona vodiysi, Samarcand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo qadimdan pichoqchilik markazlari bo‘lib, ular o‘zining ishlash texnologiyasi, shakli, katta kichikligi va bezaklari bilan farq qilgan.

O‘zbekiston Respublikasida 20 ga yaqin pichoqchilik markazlari bo‘lib, ular yasalish usuliga ko‘ra Chust (tus) pichog‘i, Shaxrixon pichog‘i, Poytug‘ pichog‘i, Qo‘qon pichog‘i, Qorasuv pichog‘i kabilarga bo‘linadi.

Pichoq turlari.O‘rta Osiyoda pichoq alohida ramziy ma’noda, ya’ni barcha yovuzlardan saqlash ma’nosida masalan «dandon sopli pichoq» va «karkesonli pichoq»lar ilohiy hisoblangan.Pichoq qadimdan ishlatib kelinayotgan asboblardan biri bo‘lib, uni tosh, miss va bronzadan ishlangan. Pichoq va dastadan iborat.

Pichoqlar tuzilishiga ko‘ra 3 xil bo‘ladi:

To‘g‘ri pichoq, qayqi pichoq, bodomcha pichoq.

To‘g‘ri pichoq qadimdan ishlatib kelinayotgan qayqi pichoq - tig‘ni uchi orqasiga ozgina qayrilgan. Uni qilichak pichoq, chaqmoqi pichoq deb ham yuritiladi.

Bodomcha pichoq - orqa qirrasi uchiga nisbatan 4-5 sm ichiga kamalak bo‘lib kirgan.

O‘rta siyamli pichoq - pichoq turlaridan biri.

Kezlik pichoq - bolalar uchun ishlangan. Nikohda beriladi.

Bola pichoq - bolalar uchun.

Chalabuzar – pichoqni tig‘i bo‘g‘zidan qayrilib, dastasiga yopilgan bo‘ladi.

Mardona pichoq - kashtalar uchun ishlangan pichoq.

Sodda pichoq - uy-ro‘zg‘orda ishlatiladigan pichoq.

Guldor pichoq - dastasiga naqshlar solingan.

Chilmixigulli pichoq - dastasiga chilmixlar qoqib guldor qilib yasalgan.

Rufta pichoq - tig‘ining yuzi sidirg‘asiga charxlangan.

Yog‘och sopli pichoq - yog‘och sopli pichoq.

Shohdastali pichoq - shohdan dastasi.

Dandon sopli pichoq - pichoqning sopi filning tishi va suyagidan tayyorlangan.

O‘n uch sopli pichoq - pichoq dastasiga o‘n uch dona sadaf ko‘z solingan.

O‘n besh sopli pichoq - pichoq dastasiga o‘n besh dona gul solingan.

Pichoqning tuzilishi.

Pichoq 3 ta qismdan tig‘, dasta va qindan iborat.

Tig‘-pichoq tig‘i, kesadigan qismi.

Pichoq dastasi – suqma dasta, yorma hamda naqshinkor dasta.

Qin – pichoq, qilich, hanjar va boshqa asboblarni solib qo'yish uchun maxsus moslama.

Pichoqchilikda temir yoki po'latdan ishlatiladi. Bronza davrida bronza va misdan yasashgan. Temir kashf etilgandan so'ng temir pichoq yasalgan.

Pichoqchilikda – do'konda o'choq, dam, sandon, bozg'on, egov, bolg'a va boshqa juda ko'p asboblar ishlaydi.

Tig'ombir-tig'ni yasashda qimchib ushlab turadi.

Charx-har xil asboblarni o'tkirlanadi.

Bigiz-gulbandini o'yib gul solinadi.

Ko'k qalam – bigizni bir turi.

Naqsh bigiz-naqsh qalamni bir turi.

Naqsh qalam-pichoq yuziga naqsh o'yadi. Po'latdan yasaladi.

Naycha qalam – uchi tirnoq shaklda naqsh o'yadi.

Qayroq-qayrab, o'tkirlaydi.

Bozgardon – jimjiloq yo'g'onligida, bir qarich uzunlikdagi temir.

Bozg'on-katta og'ir bolg'a.

Sandon-po'latdan yasalgan taglik.

Dam-forscha tin degani – havo qaynatib o'tin yondiradigan asbob.

Chirmixiparma – Parma o'yuvchi asbob.

Xolgulparma-parma, ko'z parma.

Sadaf arra – kichkina arra.

Savat qalam – gul o'rni o'yiladi.

Pichoqchilik ishi juda nozik ish bo'lib ko'p asbob uskuna ishlatiladi.

Zargarlik san'ati

O'zbek xalq amaliy san'atining turlari ichida zeb-ziynat san'ati bo'lmish zargarlik alohida o'rin egallaydi.

Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qadrlangan. Chunki ular inson uchun faqat bezak buyumlari bo'lib qolmay, balki sog'liq uchun, inson ruhiyati uchun ijobiyligi ta'sir etgan. Masalan, marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va iztirobni haydaydi, ko'z qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og'izda qo'lansa hidlarni yo'qotadi, oshqozondagi va jigmoidi toshlarni maydalaydi, shamollash, bavosil va boshqalarini tuzatadi. Feruza esa uni qudratli tumor sifatida taqilgan, oshqozon hamda ko'z kasalligiga shifobaxsh ta'sir etgan, ilon chaqqanda eng yaxshi davo hisoblangan. SHuning uchun qadimda kelinlar kiyimiga feruza taqishgan. Sadaf Sharqda ham, Evropada ham yuqori baholangan. Undan to'g'nag'ich, baldoq, marjonlar ilma tugmalar yasalgan. Uni qadimda oshiqlar mahbubasiga sovg'a qilgan. U taqqan kishini ajin hamda sepkillardan asragan, zehnni ravshan qilgan, kishini bardam, ruxiyatini ko'targan.

Xaltsedondan o'tmishda marjonlar, uzuk, to'g'nag'ichlar, bilak-uzuk va boshqalar yasalib, u go'yo odamlarni qahru-g'azab, g'amu-anduhdan asragan.

O'zbek zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Unga ibridoiy jamoa tuzimi davrida asos solingan. Arxeologik topilmalardan ma'lumki, zargarlik san'ati juda qadimiy san'at bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan I asrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayrитом, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolchayon, Bolaliktepada chiroyli xaykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san'ati rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Tosh asrining so‘ngi davri neolitdayoq (eramizga IV-III ming yillikning oxirida) shildiroq, munchoqlar, har xil toshlar, chig‘anoq hamda suyaklardan yasalgan bezaklar topilgan. Bu esa zargarlikni rivojlanganligidan dalolat beradi.

IV-V asrlarda zargarlik buyumlari kam ishlangan. Ular tosh, shisha, pastalardan qilingan. Masalan, Xorazmda shishadan qilingan sher va qurbaqa shaklidagi munchoqlar topilgan.

X-XI asrlar o‘rtasida bitta katta teshigi bo‘lgan suyakli tugmachalar ko‘p ishlatilgan. XIV-XV asrlarda zargarlik juda yaxshi rivojlangan bo‘lsada nimagadir bizgacha juda kam miqdorda saqlanib qolgan. XVI-asrda ishlanagn ko‘krak bezak zargarlik buyumlari faqat devoriy rasmlar orqali etib kelgan. XIV-XVII asrlarda zargarlik buyumlarining naqsh bezaklari judayam murakkablashib boradi.

XIII-XIV asrlargacha zargarlik buyumlarida ko‘pincha hayvonlar tasvirlagan bo‘lsa, keyinchalik esa arab yozuvlari kompozitsiyaga kirib o‘ziga xos ko‘rinish berdi. Bu yozuvlar bir tomondan naqsh bezagi va ikkinchi tomondan ma’no jihatidan farqlanar edi. XVIII-asrda mug‘ul bosqinchilaridan so‘ng bиринчи marta oltin tangalar ishlab chiqarila boshlandi. Zargarlik buyumlari oltindan, kumushdan va boshqalardan ishlandi.

XIX-XX asr boshlarida O‘rta Osiyo xonliklari o‘rtasida badiiy hunarmandchilik rivojlandi, shular qatori zargarlik ham tez sur’atlar bilan rivojlandi. Ko‘pgina shaharlarda masalan, Xiva, Buxoro, Qo‘qon, Samarqand, Qarshi, Shaxrisabz, Toshkent, Andijon, Urganch, Nurota, Kitob, Chust, Asaka, G‘ijdivon, Marg‘ilon va boshqa joylarda usta zargarlar bo‘lib, ular maxsus mahalla-mahalla bo‘lib yashaganlar. Shuning uchun zargar (zargaron) mahalla deb yuritilgan. Xivada 1860-yilda 12 ta va XX asrning boshlarida Buxoroda 400 tagacha, Toshkentda esa 100 dan ortiq, Samarqandda 1893 yili 20 dan ortiq zargarlar do‘konni bo‘lgan. O‘sha vaqtida katta shuxrat qozongan zargar ustalaridan Qo‘qonda usta Mahmud, usta Omon xoji, M.Rahimov, H.Najmuddinov, Namanganda usta Niyozi Ohun, Andijonda usta Hudoybergen, X.Otaboev, Toshkentda S.Bobojonov, Oxun Bobojonov, usta Samig‘iddin, A.SHoislomov, usta Mirhalil, Urganchda M.Abdullaev, Samarqandda H.Yo‘ldashev, I.Komilboev, V.Hafizov va boshqalar bor edi.

Hozir respublikamizning Andijon, Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Xorazm, Buxoro va boshqa shaharlarida zargar ustalarimiz bugungi kunda yangi materiallar va shakllarni ishlatish bilan birga, zargarlarning eng yaxshi qadimiylari an’analari va boy tajribalaridan samarali foydalanib kelmoqdalar. Ular hozirgi avlod didiga mos nafis zargarlik buyumlarini ko‘plab ishlab chiqarib, haridorlarni yanada xushnud etmoqdalar.

Zargarlik buyumlari.

Bezaklar. Ayollar libosining ko‘p qismini egallaydi. Ba’zi bir zeb-ziynatlar bir umr taqib yuriladi.

Peshonaga taqiladigan tillaqosh, boliabro‘, barak, quloqqa zirak, boshga takdo‘zi, sangoq, oltin tumor, ko‘krak bezagiga munchog‘, zebigardon, tumorcha, gajak, burun bezagi, qo‘l bezagi, bilakuzuk, barmoq bezaklari va boshqalar.

Soch popuk – sochga taqadigan sochpopuk.

Bilakuzuk – oltin, kumush, misdan yasaladi.

Zebigardon – forscha-tojikcha bo‘yin bezagi.

Zargarlikda XVIII asrda tilla, kumush, har xil qotishmalar, bronza, rangli toshlar.

Eng ko‘p oltin – kumush ishlatiladi.

XIX asrda oltin ishlatish ko‘paydi.

Birinchi darajali toshlarga – olmos, sapfir, zumrad, yoqut, aleksandrit, shpinelъ, evklaz, oltin, platina, marvarid.

Ikkinci darajali toshlarga – akvamarn, topaz, vorobevit, qizil turmalin, tsirkon.

Uchinchi darajali toshlarga – nefrit, yoqut, feruza, kordierit, agat, malaxit, billur va boshqalar.

Zargarlikda loyli o‘choq, charm, o‘ta chidamli loylar, payvand, naycha, temir qisqichlar, bolg‘achalar, metall taxta, paryur, zubila, keskich asboblar, charxtosh, qoliplar, qaychilar ishlatiladi.

Punson – zargarlikda ishlatiladigan metalga naqsh ishlanadi.

Kirya - temir yoki po‘latdan yasaladi.

Zargarlik buyumlarini ishlash juda nozik ish. Kumush, tilla, mis, qalay, jez asosiy xomashyo.

Zardo‘zlik san’ati

Zardo‘zlik – hunarmandchilikning qadimiyligi turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tillo), do‘zi (tikmoq) so‘zini anglatadi.

Zardo‘zlik san’ati uzoq tarixga ega. Zardo‘zlikning vatani Vabilon bo‘lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgan, zar, ipak va jun qo‘silib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Vizantiyada zardo‘zi kiyim-kechaklarni faqat imperator a‘yonari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilish tufayli zardo‘zlik san’ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo‘zlik san’ati rivojlanganligiga XV-XVII asrda ishlangan zardo‘zlik namunalari misol bo‘la oladi. Vizantiyadan qadimgi Rusga ham zardo‘zlik san’ati kirib keldi. Kichik Osiyo doirasida zardo‘zlik XIII va XV asrlarda ham rivojlandi. Hullas Vizantiya qaerga ta’sirini o‘tkazgan bo‘lsa o‘sha erda zardo‘zlik rivojlangan.

O‘rtalik Osiyoda zardo‘zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san’ati turlaridan biridir. Arxiologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma’lumki, O‘rtalik Osiyo xalqlari orasida qadimdan I-II asrlarda zarbop kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan.

XVII asrda yashagan Samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo‘zlik bo‘lgan, u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan.

Rasmiy ravishda saylanmay, bobo diniy-axloqiy masalalarni xamda ustalarning xatti-xarakatlarini kuzatib borar edi. Agarda bobo bo‘limgan holda oqsoqol uning o‘rnini bosib turaar edi. Oqsoqol Amir saroyi bilan amirlik ma’muriyati o‘rtasidagi tashkilotninig vakili hisoblangan. U buyurtmalar olishda va taqsimlashda, usta, xalfa, shogird o‘rtasidagi nizolarni hal qilishda xizmat qilgan.

Feodalizm davrida hamma hunarlar kabi zardo‘zlik muqaddas hisoblangan. Chunki har hunarga, kasbga bo‘lgan hurmat shunchalik bo‘lganki ustalar har bir qilgan ishlarini dil vijdoni bilan bajargan. Ustalarning aytishicha eng birinchi usta zardo‘z, eng birinchi ustoz g‘oyibona holiy hamda pir xazrati Yusuf bo‘lgan deyishadi. Shu haqda kichkina risolacha bo‘lib, unda zardo‘zlik kasbining paydo bo‘lishi, uni o‘rganish qonun-qoidalari, ishdan oldin o‘qiladigan duolar zardo‘zlik kasbining holiysi “Arvohi pir” ga sig‘inish uzoq vaqtgacha davom etgan. “Guli surx” ayyomida, ya’ni ilk bahor kunlarida zardo‘zlar Buhoro yaqinidagi Bahoviddin qishlog‘iga kelib qo‘y so‘yib hudoyilar qilishgan. Qiroat xonlik dasturxon ustida bo‘lib, risolachi zardo‘zlikning kelib chiqishi, qonun-qoidalari va o‘qiladigan duolarni tushuntirib berishgan. Risolachiga qiroatdan so‘ng kishilar nazr-niyoz bergenlar. Bu esa ularning zardo‘zlik kasbiga bo‘lgan hurmatini yanada oshirgan.

Buxoroda saroy zardo‘zlik ustaxonalari bo‘lib, ular arkda, podshoxlik binolarida, oliv davlat amaldorlarining hovlilarida joylashgan bo‘lib, amir xazinasi tomonidan ta’minlab turilgan.

Podshohning zardo‘zlik ustaxonasidan tashqari yana hususiy ustaxonalari ham bo‘lib, ularning soni 25 tacha bo‘lgan.

1920 yil sobiq sovet tuzumining dastlabki yillarida yuz bergan qiyinchiliklar Eron, Arabiston, hamda Rossiyadan keltirilgan zar simlarning to‘xtab qolishi zardo‘zlik san’ati rivojiga putur etkazdi. Bu paytda zardo‘zlik buyumlarining hillari ham o‘zgardi. Keyinchalik esa dabdabali kimxob to‘nlar o‘rniga do‘ppi, ayollar nimchalari, sumka, tuqli, albbom, muqovalari, choyshablar, ko‘zoynak g‘iloflari, shuningdek, divan yostiqlarining g‘ilofi va boshqalar tikila boshlandi. Zardo‘zlik san’ati bilan amirlik zamonida faqat erkaklar shug‘ullangan. Chunki ayol qo‘li tegsa, zar xira tortadi deb ularni bu ishga jalb qilinmas ekan. 1930 yilda O‘zbekistonda rassomlar uyushmasi, uning qoshida zardo‘zlik arteli tashkil etilib unga tajribali zardo‘zlar taklif etildi. Keyinchalik artelb kengaytirilib fabrikaga aylantirildi. Ishchilar va ustalar soni kundan kunga ortib bordi. O‘sha davrda taniqli rassom Olimjon Majidov, talantli zardo‘z Fayzullo G‘aybullaev, Umar Hayotov va boshqa ustalar ko‘plab shogirdlar qabul qilingan edi. Ular yangi uslubda tikish, milliy kiyimlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, sovg‘alar va maxsus buyurtmalarni bajarishardi.

Zardo‘zlik san’atining yirik namoyondalaridan biri, Buxorolik zardo‘z usta No‘mon Alimovdir. U Buxoro shaxrida 1908 yilda zardo‘zlar oilasida dunyoga keldi. Otasi Olimjon Majidov Buxoro amirligi ustaxonasida 12 yil ishlagan edi. U No‘monjonga yoshlik chog‘idanoq zardo‘zlik sirlarini o‘rgata boshladi. N.Alimovning ko‘pgina asarlari xar hil muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qoldi. N.Alimov ijodidagi yutug‘i qotib qolmay zar tikish hillarining turli qirralarini izlab shu sohada yangiliklar yaratdi.

Gilam to‘qish va kigiz bosish san’ati

Xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan turi bo‘lib, ko‘p asirlik milliy an’ana va uzoq tarixga ega. Gilam to‘qish badiiy hunarga kiradi. U qadimdan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhurdir. Gilam to‘qish san’ati ayniqsa chorvachilik bilan shug‘ullanadigan ko‘chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Gilam qadim zamonlardan beri xona ichini bezatish, issiq saqlash, tovushni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Gilam asosan polga yoki bo‘yra ustiga to‘shaladi, xonani bezatish uchun devorga osiladi va o‘tov ichiga o‘raladi. Bu san’at juda qadim zamonlardan beri rivojlanganligini yozma tarixiy manbalar va arxiologik topilmalar isbotlab beradi. Arxeologik topilmalar natijasida Xorazmda miloddan avvalgi 1-ming yillikka mansub gilamlar topilganligi tasdiqlandi. Qadimda Ussuriy, Bobil, Midiyada keyinroq esa Eron, Xindiston, Turkiyada to‘qilgan rangli gilamlar mashxur bo‘lgan.

VII-asr qo‘lyozmalari gilam to‘qish san’ati o‘sha vaqtarda O‘rta Osiyoda ham rivojlanganligi tasdiqlandi. V-VII asrlarda O‘rta osiyodagi ko‘pgina shaharlardan Xitoya xar hil gilamlar olib keligan. Masalan, qarish va nashibodan to‘qilgan gilamlar Xitoya olib borib sotilgan. O‘rta Osiyo va Afg‘oniston adabiyotlarida ko‘rsatilishicha VII-XI asrlarda Xorazm hamda Samarqand bilan Buxoro o‘rtasidagi ba’zi shaharlardan kichik-kichik joynamoz gilamlar to‘qib chet mamlakatlarga sotilgan.

XI-XII asrlarda O‘rta Osiyoda shu jumladan O‘zbekiston hududida gilam to‘qish san’ati juda rivojlangan. XIV-asrda esa O‘zbekiston hududida gilam to‘qish

san'ati rivojlanmay qoldi, chunki Mo'g'ul bosqinchilari O'rta Osiyonini egallab olgan edi.

XIV asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning Amir Temur qo'liga o'tishi bilan bu soha yana rivojlanib ketdi. Har xil xorijiy mamlakatlardan olib kelingan ustalar gilam to'qish ustaxonalarida ishlaganlar.

XVIII-XIX asr boshlarida ayniqsa Buxoro va Farg'ona xonliklarida gilam to'qish san'ati tez sur'atlar bilan rivojlangan.

XX asr boshlarida Qo'qon, Samarqand, Andijon, Buxoro O'rta Osiyoning gilam to'qib sotish markazi hisoblangan. Gilam to'qiydigan mashinalar ixtiro etila boshlandi. Xiva, Andijon, Qarshi, Urgut shaharlarida gilam to'qiydigan korxonalar ochildi. Andijonda «Mexchamguli» arteli qoshida gilam to'qish kursi ochildi. Artelga Farg'ona vodiysidagi Oyim qishlog'iidan katta usta Mexriniso Teshaboeva taklif etildi. Jumxuriyatda gilamdo'zlikni rivojlantirish uchun Turkmanistondan mashxur ustalar taklif etildi va ko'plab gilamdo'z ustalar tayyorlab berildi.

O'zbekistonda gilam to'qish maktabi asosan ikki – Samarqand va Andijon gilamlari o'zining chidamliligi, pishiqligi, aniq qizil-ko'k, koloridi bilan farq qiladi. Farg'ona Qoraqalpoq gilamlari asosan ikki xil, ya'ni qizil va to'q ko'k gammada to'qiladi. o'zbek gilamlarining chetiga ruta, o'rtasiga turunj yoki doira naqsh ishlanadi. Samarqand gilamdo'zlik maktabiga Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi gilam to'quvchilar kiradi. Buxoro gilamlari o'zining rang-baranglingi kattaligi, uzun patligi va chiroyli naqshlari bilan ajralib turadi. Samarqand gilamlari qisqa patli, markazida turunj chetiga alohida-alohida naqshlar ishlanadi. qalqon deb nomlangan turunj naqshi juda ko'p ishlanadi. Gilamlar xoshiyador estetik jixatdan chiroyli ishlangan bo'ladi.

Ko'pgina mamlakatlarda qadimdan to'qib kelinayotgan gilamlar yaxshi rivojlangan. Masalan, Frantsiya, Eron, Xitoy, Xindiston, Afg'oniston va boshqa mamlakatlarda. Eng yaxshi gilamlar Dog'iston, Turkmaniston, Gruziya, Ozarbayjonda va Armanistonda to'qiladi.

gilamning to'qima, tikma, va bosma hillari bor.

To'qima gilamda – gilamning guli to'qiladi. o'zbekistonda patli va patsiz (polos) gilamlar to'qiladi.

Tikma gilam – tayyor buyumga guli tikiladigan gilam.

Bosma gilam – guli bo'yab bosiladigan gilam.

Hiva, Andijon, Urgut, Qarshi va boshqa joylarda to'qima gilamlar tayyorlanadi.

Kigiz bosish san'ati

Kigiz bosish san'ati qadim zamonlardan beri rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biri. O'zbekiston hududining qaysi joyida xalqlar chorvachilik bilan shug'ullangan bo'lsa, shu erda kigiz bosish kasbi keng tarqalgan. Bu san'at turi O'rta Osiyo va Qozog'istonda qadimdan rivojlanib kelgan. Otabobolarimiz kigizni erga bo'yra ustidan solishgan. O'tovlarni o'rashgan, qalpoq, piyma va boshqalarda ishlatilgan ayrim hollarda guldor, chiroyli kigizlar badiiy buyum sifatida ishlatilgan. Kigiz oq, qizil, qora, guldor va gulsiz bo'ladi. Surxondaryo hamda Qashqadaryo viloyatlarida qoraqo'y va chaydim kigizlar, Xorazmda esa makanamat xillari bor. O'zbekistonda kigiz bosishning o'ziga xos nomlari bo'lib kigiz bosish quyidagi texnologiyada bajariladi. Kigiz qo'yning kuzgi junidan yoki echkining junidan tayyorlanadi. Jun titib tozalanadi, yuvib quritiladi. SHundan so'ng maxsus savag'ichlar yordamida yaxshilab savalanadi, ya'ni tililadi. Bu jarayondan so'ng jun rangi va sifatiga ko'ra yuzlik, oraliqqa, tanlab ajratiladi,

yuziga maxsus rang bilan bo'yalgan mayin junlardan naqshlar ishlanadi. Hozir kigizlar maxsus mashinalar yordamida tayyorlanyapti. Masalan sanoat korxonalarida jun maxsus mashinalar yordamida titiladi. Unga maxsus suyuqlik sepiladi va mashinada aralashtiriladi, aralashma mashinadan tarab o'tkazilib, momig'i olinadi. Momiqni mashinada tekis qilib to'shab zichlanadi. Shundan so'ng maxsus sulfat kislota eritmasi shimdirladi. Kerakli o'lchamda kerakli zichlikda mashinada ishlanadi. Uni cho'zib, chetlari to'g'rilab turiladi. Keyin esa bug'li quritgichlarda quritiladi. Oxirida esa pardozlanib, ortiqcha qillar qirqib tashlanadi, presslanadi va silkitiladi. Ba'zan ba'zan jundan tashqari mineral va kimyoviy tolalardan ham kigizlar tayyorlanmoqda. Kigiz texnikada va qurilishda keng foydalanilmoqda Musiqa asboblari, protezlarda, samolyotlarda, amortizator sifatida avtomobillarda ishlatilmoqda. Qurilishda esa tovush va sovuqni o'tkazmaydigan material sifatida ham keng qo'llanilmoqda hozirgi vaqtida polos gilam, gilam poyondozlar ko'plab ishlab chiqarilishi tufayli qo'lda kigiz tayyorlash texnologiyasi unutilib ketish arafasida.

Savatchilik va bo'yrachilik san'ati.

O'zbek xalqi qadimdan o'zining nafosatga boy, asrlar davomida shakllangan va sayqal topgan xalq amaliy san'ati bilan butun dunyoga mashxurdir. Shu san'atning noyob turlaridan biri SAVAT to'qish san'atidir. Savat to'qish o'zbek xalqining azaliy hunari bo'lib, otaqbobolarimiz qadimdan tomorqa va hovli atroflarini shox-shabbalardan qilingan maxsus to'siq to'rlar bilan o'rabi kelganlar. Har xil novdalardan turli-tuman savatlar to'qishgan. Ularning har biri shakli va ishlatish joyiga qarab turli nomlar bilan yuritiladi. Masalan, kajava savat, non savat, elama savat, qoshiqdon savat, guldar savat, dasturxon savat, to'r savat, uzum savat, bosma savat va boshqalar. qadimdan savat to'quvchilarning maxsus do'konni bo'lib, u erda turli-tuman savatlar sotilgan.

Qadimdan savat to'qishda tut, terak, tol, turang'il, yulg'ich novdalari bug'doypoya, qamish va boshqa materiallarni ishlatib kelganlar. Ayniqsa qoratolning novdasidan to'qilgan savatlar juda chidamlı hisoblangan. Savatlar terak, majnuntol, turong'il, ligustrum va tolning bir yoshli tekis novdalaridan to'qilgan.

O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlari barmoq bilan sanoqli ustalar bor. Ular xalqimizning qadimiyligi an'analarini davom ettirmoqdalar. Shunday ustalardan biri qo'qonlik Ashurbibi Botirovadir Ashurbibi Botirova Farg'onadagi boshqa savat to'quvchi ustalardan farq qiladi. U non savat, dasturxon savat singari kattaroq, ro'zg'orbop buyumlarni yirik novdalardan siyrakroq qilib to'qib, ba'zi joylarda o'rama usullardan foydalanadi, mayda savatlar, ya'ni, gul savat, chok savat, savli va boshqalarni mustaxkam, nozik va mayda chavaqlardan mayda qilib to'qiydi. Hozirgi kunda Ashurbibi Botirovaning serjilo va sernaqsh savatlari xalqqa manzur bo'lmoqda.

Bo'yrachilik – bo'yra to'qish kasbi, tojikcha bo'yrobofi O'rta Osiyoda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turi. Bo'yra bu yaxshi pishigan qamishni pachoqlab, po'stini tozalab to'qilgan buyum. Uni gilam, namat (kigiz), polos tagidan solishgan. Bo'yra to'qiydigan mutaxassislari bo'yrachilar deb atalgan. Bo'yra gilam, namat (kigiz), poloslarni tuproq va zaxdan saqlagan, undan to'y marosimlarida, mevalarni qishda saqlashda, quritishda foydalanilgan. U qop o'mida ham ishlatilgan, derazalarni qorong'ilatishda parda sifatida, musulmonlar odatiga ko'ra dafn marosimida ham bo'yradan foydalanilgan. qadimda qurilishda bo'yura juda ko'p ishlatilgan. Imorat tomini yopishda (lomboz bosishda) ham ishlatilgan. Buxoroda X asrda qamishdan juda keng foydalanilgan. Qadimda bo'yrachi

mahallalar (tojikcha bo‘yrabofon deb yuritilgan) bo‘lgan. Bunday mahallalardagi har bir oila bo‘yra to‘qish bilan shug‘ullangan. Va bo‘yralarni bozorlarda maxsus rastalarda sotilgan. Bo‘yralarni turli xil nomlar bilan yuritiladi. Qurilishda uy tomini yopishda «bordon» ishlataladi.

Chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me’morchilik bezaklarini ularning rang-barangligi, giometrik va o‘simpliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o‘z orzu umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izzor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san’atining ayrim turlari, ularning o‘ziga xos tomonlar, xaqiqiy o‘zbekcha nomlari, ishslash texnologiyalari va ularni yaratgan ustalarning nomlari asta-sekin unitilib ketish arafasida. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo‘yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san’at ko‘z qorachig‘idek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish xozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Xalq amaliy san’atida uchraydigan atamalar va naqqoshlik san’ati iboralari

Xalq amaliy bezak san’ati boshqa fanlar kabi o‘zining maxsus atamalariga ega. Lekin bu san’at turi buyicha atamalar lug‘ati yaratilmagan. Bu esa Respublikamizdagi ming minglab yoshlarning xalq amaliy bezak san’ati sirlarini o‘rganishida qiyinchiliklar to‘g‘dirmoqda.

Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarini islox qilishning asosiy yunalishlarida “Go‘zallik tuyg‘usini, rivojlantirish sog‘lom badiiy didni shakllantirish, san’at sirlarini, jonajon ona tabiat go‘zalligini to‘g‘ri tushunish va qadralash mahoratini rivojlantirish zaruru” deyildi. Hozirgi kunga kelib izohli lug‘atga ishtyoq ortmoqda yoshlar san’at sirlarini o‘rganish da juda ko‘p tushunchalar va atamalarga duch keldilarki, bu tushunchalarni va atamalarni istagan vaqtga tegishli adabiyotlardan ishslashga qiynaladilar. Masalan: O‘zbekiston xalq rassomi Mahmud Usmonovning “San’atim saodatim” nomli qiziqarli risolasida bir qancha naqsh atamalari, ya’ni: “Hashdi tufsor, sarnigon, tubsori qanoat, xonaigi bo‘rtma, hashdi davra, sorsa, davrayulduz, shashsdona, parrak, lolo ishlimiy, bofda islimiy, erkin islimiy, turunj, lula hoshiya” va boshqa atamalar berilgan, lekin bu atamalarning lug‘aviy ma’nosini tegishli kitoblardan topish qiyin.

O‘zbek xalqining asrlar davomidagi ijodiy mehnati jarayonida yaratilgan termenalogiyaning ba’zi turlari unitilib bormoqda. Risolalarni, maqolalarni, hujjatlarni va arxiv materiallarini mutolaa qilar ekanmiz, ulardan ko‘plab so‘z iboralarimiz yuz maqomga solib yozilayotganligini va hamda turli ma’nolarda qo‘llanilayotganini ko‘ramiz. Bunday ifodalardagi har xillikka barham berish maqsadida ba’zi bir izlanishlar olib borildi. Chunonchi biz maktab o‘quvchilari, talabalari, o‘qituvchilari, to‘garak rahbarlari, xalq amaliy san’ati ustalari bilan savol-javob qilganimizda ular ko‘pgina xalq amaliy san’atida uchraydigan atamalarni aniq lug‘aviy ma’nosini aytib bera olmadilar. Masala, shunday atamalardan: morpich, ganch, kundal, ruta, mahodil, men nigor, islimiy raftor, ganchkor, va namoyon va boshqalar. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, xalq san’ati atamalari ilmiy asosda juda kam o‘rgatilgan. Bu muammoni hal qilish uchun birinchidan Respublikamiz gazeta va jurnallarida “Xalq amaliy bezak san’atidan lug‘aviy manoyingizni boyitingiz” degan robrika ochish, ikkinchidan, xalq amaliy bezak san’atiga doir ilmiy asoslangan izohli mslug‘at yaratish maqsadga muvofiqli.

Xalq amaliy bezak san'atidan atamalar izohli lug'ati tillarning mukammal bo'lishida, dialektlarda boy o'zbek xalqining madaniyati, sanati, urf-odatini o'rganishda va saqlab qolishda shubhasiz katta ahamiyatga ega. Xalq amaliy bezak san'at sirlarini chuqur o'rgana olmagan kishi hechqachon shu ishni qiyomiga yetkazib amalga oshira olmaydi. Yaratilishi kerak bo'lган izohli lug'at amaliy bezak san'atini o'rganayotgan yoki ishlayoptgan o'quvchi, talaba, o'qituvchi, to'garak rahbari, usta va san'atshunoslar ish stoli ustida turishi zarur.

Naqqoshlik hayotimizda keng qo'llanilagan nafis san'at turidir. Bu san'atdan binolarni bezashda, chinni idishlarga bezak berishda, qadimdan foydalanib kelingan san'at turidir. Naqqoshlik san'atining rivojlanishida, yaratilishida Xivalik xalq ustasi Abdulla Boltayev, mashhur o'ymakor usta Ota Polvoniv, Buxoro xalq ustalari maktabining istedodli vakili usta Shirin Murodov, Namanganlik naqqosh Rahimjon Zohidov, usta Qodirjon Haydarov, Nuratolik chevar Oysha Karimova usta Ortiq Fayzullayev, o'ymakor Ibrohim Komilov, Toshpo'lat Arslonqulov, Saidmahmud Norqulov, usta Mahmud Usmonovlarni o'quvchilarga aytib o'tish vaularni ijod namunalarni ko'rsatish san'atni sevish, ardoqlash, go'zallikni sevish, ko'nikmalarni oshirishda asosiy o'rinda turadi.

Stilizatsiyalashda mo'ljallagan tabiiy shakllar tasvirlangan jadval (gullar, barglar, hashoratlar, qushlar va boshqalar). Masalan: quticha uchun tayyorlangan naqsh eskizlari. Yog'ochdan ishlangan namuna quticha namunasi. Naqsh bezatilgan quticha. Xalq amaliy san'ati turlaridan hisoblangan naqqoshlik san'ati turlarini gapirib ustalar tomonidan yaratilgan bezaklarni ko'rsatib, uy-ro'zg'or buyumlaridan xontaxta, stol-stul, sur'at ramkalari, quticha kabilarni bezatishni aytib o'tish kerak. Qutichaning yoyilmasini ko'rsatib unga qanday naqshlar to'g'ri kelishini alohida tushutirish kerak.

Qadimdan uy-ro'zg'or buyumlariga bo'yoqlar bilan ajoyib naqshlar ishlanib kelingan. Bu naqqoshlik san'ati deb yuritiladi. O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atning bu turi qadimdan rivojlangan bo'lib unga o'zbek ustalari nafaqat uy-ro'zg'or buyumlarini emas balki uy-joy va jamoat binolarini devor va shiftlarini ham bezaydilar.

Xalq ustalari tajribasida naqshning quyidagi turlari ko'proq qo'llaniladi. **Islimiya naqsh** - bu ikki guruhdagi naqsh islumi vagrix elimintlaridan tashkil topgan. Islimi turdag'i asosiy elimintlat-novda: yaproq, gul, g'uncha, kurtak, qalampir, meva, poya kabilar hisoblanadi.

Poya va novda turlari naqshlarning eng ko'p uchraydigan elementlari hisoblanib, ular naqsh hoshiyalarida qo'llaniladi. Girixlar esa to'rsimon va yulduzsimon bo'lib, yulduz nurlarining soni 5 dan 16 gacha boradi.

Naqqoshlik amaliy san'ati O'zbekistonda XVIII-XIX asrlarda keng rivoj topa boshladi. Qadimda naqsh bilan masjid va madrasalar, boy zodagonlarning uylari beatilar edi. Bu davr me'morchilik naqshlari o'z qonun qoidalari hamda bezash uslubiga, o'ziga xos ranglar uyg'unligiga va va mustaqil naqsh tuzilishiga ega. Tayyor naqshni ko'chirib chizishda maqsad kelgusida turli shakllarni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va mustaqil naqsh kompozitsiyasini chizish. Naqqoshlikka qiziquvchilar naqsh elemetlari va naqsh chizish malakasiga ega bo'lgan, shu elementlarni bir-biriga qo'shib mustaqil ravishda iddiy kompozitsiyalarini tuzish mumkin.

Naqqoshlik tarixini. Usatalar ijodini o‘rganishda, naqsh chizishda ba’zi atamalarga, qiyin so‘zlarga uchraymiz. Dars davomida o‘quvchilarga shu so‘zlarining ma’nosini batafsil tushuntirish lozim.

Xalq amaliy san’ati atamalari

1. Shukufda –naqsh elementida novdalar bir-birini bog‘lash va to‘ldirish uchun xizmat qiladi.
2. Bofta – tanop aylanib o‘tib hosil qilingan islimiy naqsh elementi egri va to‘g‘ri chiziqlardan tashkil topgan bo‘ladi.
3. Tanop – arabcha chilvir, arqon degan ma’noni bildiradi.
4. Marg‘ula – qosh chiziqli jangak demakdir. Naqsh kompozitsiyasida marg‘ula to‘ldiruvchi unsur hisoblanadi.
5. Band – (novda) haqiqiy o‘simglik bandining o‘zlashtirilgan formasi.
6. Anor gul - anor ko‘rinishi dagi naqsh turi.
7. Axta – naqshni qog‘ozga chizib, chiziq yo‘llari igna bilan teshib tayyorlangan andoza
8. Barg – o‘simglik bargi badiiy ifodasi.
9. Bodom – shaklidagi naqsh.
10. Butador – buta shaklidagi naqsh.
11. Guli shashbarg – olti parrari guldan tashkil topgan islimiy naqsh turi .
12. Guli quyosh – xalq amaliy san’atida ishlatiladigan naqsh turi.
13. Gulqalam – naqqoshlikda - yumshoq qalam turi; naqshlarni bo‘yash va pardozlash uchun ishlatiladi.
14. Jiydagul – jiydagul shaklidagi naqsh.
15. Jingalak – jingalak turidagi naqsh bo‘lagi. Naqshdagi to‘ldiruvchi qism vazifasini o‘taydi.
16. Zamin, asos – naqsh bezagining guldan tashqari tag qismi.
17. Zirk guli – islimiy naqsh bo‘lagi; chiroyli yaproqli gul.
18. Islimiyl – o‘simgliksimon naqsh turi.
19. Katok guli – to‘rsimon yirik naqsh turi.
20. Lola hoshiya – lola sjaklidagi naqsh turi.
21. Mahodil - chapu – rost takrorlanuvchi lolasimon naqsh turi.
22. Marg‘ula – gajak ko‘rinishidagi islimiy naqsh bo‘lagi.
23. Mehrobi – mehrobsimon shaklda ishlanadigan naqsh turi.
24. Munabbat – naqshning asosi to‘g‘ri to‘rt burchakdan tashkil topib, 4 tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda foydalaniadi.
25. Nayza – nayzasimon naqsh turi.
26. Na'lak – taqacha shaklidagi gajak naqsh qismi.
27. Naqsh girdob – kulcha shaklidagi naqsh, islimy, handasiy, gulli, girix, nishon tarzida bo‘ladi.
28. Oygul, oygul islimiy – oy shaklidagi islimiy naqsh bo‘lagi.
29. Oba, Obi – naqsh gul shaklidagi chiziq. Naqshdagi turli-tuman ranglar oba bilan ajratiladi.
30. Pargori naqsh – pargor (sirkul) bilan yaratilgan naqsh.

31. Pechak islimi – chirmashib o’sadigan o’simlik tasviri, islimi naqsh turi.
32. Raftor – bir yoki ikki tomonga to’lqinsimon o’sgan novdasimon naqsh “yakraftor”, - duraftor turlari bor.
33. Romb – handasiy naqsh elementi.
34. Ruta – hoshiya naqsh.
35. Sib - olma, doirasimon naqsh.
36. Girix – handasiy naqsh. Murakkab naqsh turi. To’rtburchak, uchburchak, aylana va yoyleydan tashkil topadi.
37. Seraftor – uch yo‘nalishli hoshiya naqsh.
38. Siyoh qalam – kichik mo‘yqalam bilan naqsh chegarasini chizib chiqish.
39. Tazheb – naqshlarni zarhal bilan ishslash.
40. Taka muguz – echkining shohi ko‘rinishidagi shaklning ikki tomonga takrorlanishidan hosil bo‘ladigan naqsh.
41. Tanob tortish – naqshning asosiy qismini chizish.
42. Targ‘il – naqqoshlikda taroqtishlarsimon pardoz berishning bir turi.
43. Tazhebli hoshiya – hoshiya naqsh.
44. Taqsim – naqshning ma’lum bir shakldagi takrorlanuvchi qism.
45. Tugmacha - tugma naqsh, tugma shakldagi naqsh turi.
46. Turunj – doira shaklidagi naqsh.
47. Xasht barg – 8 bargdan tashkil topgan islimi naqsh turi.
48. Chekma qalam – o‘yma naqsh zaminida nuqtalar hosil qilishda ishlatiladigan asbob.
49. Chor islimi paxta gul – islimi naqsh bo‘lagi. Paxta guli tasviridan tashkil topgan islimi naqsh.
50. Chor barg – 4 bargli naqsh bo‘lagi.
51. Chordona – to‘rt dona, qator nuqtalardan tashkil topgan oddiy hoshiya naqsh.
52. Shingila – uzum donasiga o‘xhash islimi naqsh turi.
53. Yakraftor – to’lqinsimon tanop va gullardan tuzilgan bir yo‘nalishli naqsh.
54. Qo‘s sh gajak – islimi naqsh bo‘lagi, juft holda qayerilib ishlangan gajaksimon naqsh.
55. Xalqacha – oddiy hoshiya naqsh, yoysimon, yarim va aylana shakllardan tashkil topgan.

Ari anjiri – ari iniga o‘xshatib o‘yilgan zanjiri turi. U qadim zamondan ishlatilib kelinayotgan zanjira turlaridan biri bo‘lib, ganchkorlik, yog‘och uymakorligi tosh uymakorligi kabi san’at turlarida ishlatiladi.

Naqshlar buyumga, devorga yoki qanday joyning bezatilishiga qarab o‘ziga xos turli tuman uslubga, bajarilish texnologiyasiga va mazmuniga ega bo‘ladi.

Naqshning o‘zi nima? Uning qanday turlari bor?

Naqsh – arabcha tasvir, gul degan ma’noni anglatadi. U elementlar ma’lum tartibda takrorlanadigan qush, hayvon, o’simliklar, geometrik shakllar va boshqalarning ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik kandakorlik, kashtado‘zlik, zardo‘zlik, kulolchilik, gilam to‘qish, qizlar va ayollar kiyimlarini bezashda har xil yo‘llar bilan turli ko‘rinishdagi naqshlar ishlanadi. Ganch uymakorligida ishlatiladigan naqshlar mazmuniga ko‘ra o‘simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa turlari mavjud. O‘simliksimon naqsh tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g‘uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklni

takrorlanishidan hosil qlinadi. Geometrik naqsh turlari to‘rtburchak, uchburchak, aylana, yarim aylana, ko‘pburchaklardir.

Teng tomonli uchburchak – tik turgan holati hayotning boshlanishi, teskari turgan holati esa hayotning oxirini.

Kvadrat – dunyoning to‘rt tomoni, osmon saroyi, quyosh farzandi, abadiylik yorug‘lik, mustahkamlik.

To‘g‘ri to‘rtburchak – ishonch.

Romb – ayol, ona yer, ser farzandlik.

Aylana – olam, baxt, quyosh, odamlarni yovuz niyatlardan qaytarish ramzi.

Yarim aylan – baxt.

Yarim oy – mustaqillik ramzi.

Quyosh – hayot ramzi.

Bulut – g‘oliblik.

To‘rt yonli uchburchak – yarim bo‘lingan bo‘lak, ayriliq.

Islimiyl naqsh – naqsh elementlarining ramziy ma’nolari.

Bodom – baxt, iqbol.

Barg – bahorgi uyg‘onish.

Qalampir – har xil yomonliklardan va yomon ko‘zdan asrash.

Zirk gul – ya’ni gulsapsar osoyishtalik va umr uzoqlik.

Anor – ezgulik to‘qchilik.

Oygul – baxt iqbol ramzi.

Jingalak – to‘kin sochinlik, boylik.

Olma – muhabbat ramzi.

Novda – boylik va farovonlik.

Yaproq – bahorgi uyg‘onish, navro‘z.

Isiriq – yomon ko‘zdan asrash.

Atirgul – go‘zallik ramzi.

Naqqoshlik san’ati tilini bilish uchun naqshning xar bir elementi va ranglarining ramziy alifbosini bimoq kerak. Amur Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali Ibn Sino, Nosir Xisrav, Al- Xorazmiy, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jaxonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar kishilar xayolini o‘ziga tortuvchi, tabiatning go‘zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni go‘zallik bilan yaqin do‘sit, birodar bo‘lishga undaganlar.

Xush naqqoshlikda ramz nima? Ramz arabcha “ishora qilmoq” so‘zidan olingen, tabiatni, voqiylikni xayotdagi quvonch va tashvishlarni, do‘sit va dushanlarni, yaxshilik va yamonlikni naqsh elementlari bilan, jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir.

Naqshdagি ranglar

Yashil rang – ona tabiat ramzi

Kuk rang – moviy osmon, tinchlik, yomon ko‘zdan asrash

Qizil rang – g‘alaba, xursandchilik, shodlik

Sariq rang – muqaddaslik

Zangori – oliv e’tiqod

Qora rang – motom

Sariq gul – ayriliq

Oq rang – tozalik, yorug‘lik, baxt ramzi

Darsning mavzusi: Naqsh elementlarini chizish texnologiyasi.(qalamda)

Darsning maqsadi:

- 1. Tarbiyaviy:** O‘quvchi yoshlarda estetik didni tarbiyalash.
- 2. Ta’limiy:** O‘quvchilarni naqsh elementlarini chizish orqali tasviriy san’at mashg‘ulotlarida olgan bilim va malakalarini hayotda, turmush tarzda qo‘llay olishga o‘rgatish
- 3. Rivojlantiruvchi:** O‘quvchilarni naqqoshlikda bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, fantaziyasini o‘sirish, dunyo qarashini kengaytirish, ijodiy fikrni rivojlantirish.
- 4. Kasbga yo‘naltirish:** Naqqoshlik hunariga qiziqish uyg‘otish.
- 5. Milliy istiqlol g‘oyasini singdirish:** O‘zbek xalq amaliy san’ati, milliy madaniy me’rosni o‘quvchilar qalbida shakllantirish.

Dars usuli: aqliy hujum

Dars uslubi: savol-javob, amaliy mashg‘ulot

Dars tipi: Aralash

Dars johozi: XABS kitobi, krossvord, rangli reproduksiyalar, qalamlar, o‘chig‘ich cho‘zg‘ich, sirkul, guash, akvarel mo‘yqalamlar, suv idishi.

Darsning borishi:

a) Tashkiliy qism. O‘quvchilar bilan salomlashish, Diqqatni jamlash.

b) Shior **Rassom chizgan suratda**

Tabiatni kuylaydi
Yurtimiz go‘zalligin
Dilimizga joylaydi

c) Asosiy qism.

Darsning rejasi

1. Kirish. XABS Xalq amaliy bezak san’ati.
2. Tarixiy obidalarimiz haqida ma’lumot.
3. Naqsh elementlari.
4. Naqsh elementlarini chizish bosqichlari.
5. Mustahkamlash.
6. Krassvord.
7. Uyga vazifa

1. “**Agar kimki rasmdagi har bir chiziqqa jon bag‘ishlay olar ekan, u san’at kalitini egallagan bo‘ladi**”. Sharqning mashhur buyuk naqqoshi Maoniy.

O‘rta Osiyo naqqoshlik san’ati qadimdan dunyoga mashhur. O‘tmishda otabobolarimiz qurgan mustasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo‘qotmagan. Yuksak did bilan ishlagan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda. Milliy naqshlarimiz g‘oyatda boy mavzuga-mazmunga ega.

Xalq amaliy bezak san’atining qanday turlarini bilasiz?

Javob: Naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och uymakorligi, pichoqchilik, toshtaroshlik, misgarlik, zargarlik, zardo'zlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, savatchilik va buyrakchilik, kulolchilik, kandakorlik.

Bugungi darsimizda qanday XABS turi asosida ishlaymiz?

Javob: Naqqoshlik.

Naqsh – arabcha “tasvir, gul” degan ma’noni anglatadi. Qush, hayvon, o’simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir.

2. O’zbekiston hududida ko‘plab tarixiy yodgorliklar obidalar joylashgan.

Savol: Qanday tarixiy shahar va obidalarni bilasiz?

Javob: Buxoro, Samarcand, Xiva, Shaxrisabz, Qo‘qon

Obidalar-Samoniylar maqbarasi, Ko‘kaldosh Nodira devonbegi maqbarasi va madrasasi, Mir Arab, Ulug‘bek madrasasi.

Registon maydoni, Shoxi Zinda, Go‘ri Amir, Ulug‘bek rasadxonasi. Xivadagi Ichanol’ga Dishanol’ga, Kaltaminar Xiva Oqsaroy Shaxrisabz Xudoyorxon qarorgohi va boshqalar

3. Naqsh elementlari.

a) O’simliksimon islimiy

b) Geometrik handasiy

c) Ramziy

a) O’simliksimon naqsh elementlarini oddiy hamda murakkab bo‘ladi. Bular barglar, gullar, g‘uncha, marg‘ula, tanob, shukufta, bog‘lam.

b) Geometrik naqsh-elementlari asosan geometrik yashashlar asosida tuziladi. To‘rtburchak, uchburchak, romb, trapetsiya, o‘tmas va o‘tkir burchakli uchburchaklar, ko‘pburchaklar, egri chiziqlar, (yoy, aylana, oval).

Bu elementlar yig‘indisi girix deb atalmish murakkab geometrik naqshni yasaydi.

c) Ramziy naqsh elementlari. Ko‘za, tovus, qush, soat, piola, she’r, quyosh, yulduz, baliq, sichqon, uzum, anor, olma, kiyik, bulut.

4. Naqsh elementlarini chizish bosqichlari.

Qog‘ozda naqsh solishni o‘rganish uchun dastlab to‘g‘ri, egri, tik, aylana chiziqlarni chamalab bo‘lishdan boshlanadi. O’simliksimon naqshlar elementlari barglar, tanob, bog‘lam gullar katak daftarda maxsus to‘rlar asosida qora qalamda chizish mashq qilinadi. Naqshlar jonli va ravon chiziladi. Chizish vaqtida simmetriya va assimetriya va boshqalarga e’tibor beriladi. Bu elementlarni quyidagi tartibda chizgan ma’qul. Dastlab barg elementlari so‘ngra gullar, undan so‘ng bargli gullar, va nihoyat tanob, band, shukufta va boshqa elementlarni chizish mashq qilinadi.

Naqsh elementlari bosqichma-bosqich qora qalamda chizmachilik asboblari yordamida chizish mashq qilinadi.

Yaxshilab ko‘nikma hosil qilingandan so‘ng, elementlar yordamida oddiy naqsh namunalaridan murakkabga 5-6 martalab takrorlanib albomda chiziladi.

Stilizatsiya, assimetriya, simmetriya, ritmga alohida e’tibor beriladi.

Ritm-takrorlanib keluvchi

Simmetriya-mos degani. O‘lchovlarning bir-biriga mosligi, tengligi, mutanosibligi degani.

Naqsh chizish jarayonida qalamni qattiq bosmasdan yengil ravon chizish kerak. Naqsh elementlari mukammal o‘rgangandan so‘ng, naqsh kompozitsiyalari tuzamiz. Naqsh kompozitsiyalarni bo‘yash, bo‘yoqlar tayyorlar texnologiyasini kelgusi mashg‘ulotlarda biz siz bilan o‘rganamiz.

5. Mustahkamlash

Savol: Naqsh elementlarining turlarini sanab o‘ting?

Savol: Geometrik naqsh elementlarini qanday chiziladi.

6. Krassvord

			B				
			A				
			R				
			G				

Savollar:

1. Stillashtirib tasvirlangan o‘simliksimon naqsh elementi. Meva. Baxt-iqbol ramzi.
2. Rang turi
3. Takrorlanib keluvchi (termin).
4. Qizil, sariq
5. Uyga vazifa.

Naqsh elementlarini chizishni mashq qilish.

Mavzu: O‘zbekistonning amaliy bezak san’atida ramziy shakllar.

I. Ta’limiy maqsad: a) O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish. O‘zbekistonning amaliy bezak san’atida ramziy shakllari haqidagi bilimlarini oshirish.

II. Tarbiyaviy maqsad:

- a) Ona vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.
- b) Mavzu orqali ham aqliy, ham axloqiy tarbiya berish.

III. Rivojlantiruvchi maqsad:

- a) O‘quvchilarning tafakkur ongini boyitish.
- b) Olgan bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llashni o‘rgatish.

I. Kasbga yo‘naltiruvchi maqsad:

O‘quvchilarni zardo‘zlik kasbiga qiziqishlarini uyg‘otish.

II. Milliy va mafkuraviy maqsad:

Milli istiqlol g‘oyasini, milliy qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga singdirish vatanni sevish uni asrash, avaylash kabi yuksak tuyg‘u va istak g‘oyalarini tarbiyalash.

Dars tipi: Aralash.

Darsning uslubi: Noan’anaviy, muammoli o‘qitish.

Darsning usuli: Savol-javob, bahs.

Darsning jahozi: a). O‘qituvchi uchun, ko‘rgazmali quollar, tarqatma materiallar, bur va sinf tahtasida chizish uchun asboblar. B). O‘quvchilar uchun Chizma asboblari, qalam, naqsh namunalari

1. Tashkiliy qism:

Sinf tozaligi tekshirib, davomat va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi aniqlanadi.

O‘tilgan mavzu bo‘yicha ayrim o‘quvchilarga savollar beriladi.

Uyga vazifalarni tekshirib, baholab chiqaman.

O‘qituvchi: O‘tilgan mavzuni yaxshi o‘zlashtiribsizlar, meni savollarimga javob bera olasizmi? Topshiriqlar beriladi.

Topshiriq. 1-variant (o‘g‘il bolalar uchun): so‘zana uchun naqsh kompozitsiyasini tuzing?

2-variant (qiz bolalar uchun): zardo‘zlik namunasi uchun naqsh kompozitsiyasini tuzing?

Material. Turli tusdagi qog‘ozlar, akvarel va guash bo‘yoqlari, mo‘yqalam.

Darsning mazmuni.

1. Nazariy qism. Amaliy bezak san’atining tarixiy va unda qo‘llaniladigan shakllarning ramziy ma’nolari haqida ma’lumot berish.

O‘zbekistonning amaliy bezak san’atini go‘zal naqsh bezaklarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu san’at namunalarining eng oddiyidan tortib o‘ta murakkabida ham, o‘lcham jihatidan mo‘jazlaridan tortib to mahobatli namunalarida ham ramziy ma’no kasb etgan shakllarni ko‘rishimiz mumkin. Bundan nafis bezaklarni bolalar o‘yinchoqlarida, beshiklar, sandiqlar, kursilar, stollar, xontaxtalar, qutichalar, shaxmat taxtasi, otning egarlari, choyshab, belbog‘lar, so‘zanalar, palaklar, kashtalar, gilam-kigizlar, zargarlik buyumlari, zardo‘zlik va shu kabi badiiy hunarmandchilik namunalarida ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek ustalarining amaliy bezak san’atiga oid asarlarida xalq madaniyati va turmush tarzi o‘z aksini topadi. San’atning bu turi juda qadimiy bo‘lib, asrlar osha rivojlanib, takomillashib kelgan. Bizning davrimizda ham amaliy bezak san’ati rivojlanib, takomillashib kelgan. Bizning davrimizda ham amaliy bezak san’ati rivojlanib, shuhrati dunyoga mashhur bo‘lib bormoqda. Bu san’at namunalari Samarand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi shaharlaridagi muzeylarning doimiy ko‘rgazmasi (ekspozitsiyasi) dan joy olgan.

O‘zbek ustalarining amaliy bezak san’atida rand va naqsh ramziyligi alohida o‘rin tutadi. Qaysi bir tasvirni olmaylik, uning zaminida albatta biron bir ramziy ma’no bor.

Hozir faqat zardo‘zlik san’atining tarixi va unda qo‘llaniladigan ramziy shaharlar xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Zardo‘zlik o‘zbek xalqining keng tarqalgan amaliy bezak san’at turi bo‘lib, markazi Buxoro shahri bo‘lgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, uning dastlabki namunalari ilk o‘rta asrlar (eramizning VI-VII asrlari) ga tegishli bo‘lgan. Zardo‘zlik san’ati XIX asrning oxirlarida Buxoro amirligining poytaxti Buxoro shahrida rivoj topdi. Biroq, bu yerdagi ustaxonalarda etik, mahsi, to‘n, belbog‘, do‘ppi kabi zar bilan bezatilgan kiyimlar faqat hukmdorlar, badavlat kishilar, xorijiy elchilarga tortiq qilish uchun maxsus tayyorlangan edi.

Buxorolik mashhur ustalar Usta Salim, Usta Olimjon Majidov, Usta Fayzullo G‘aybullayevlar yaratgan zardo‘zlik buyumlari hozirgi kunda dunyoning bir qator muzeylarida saqlanadi. O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston xalq amaliy san’ati muzeylarining ekspozitsiyalari orasida ham zardo‘zlik san’ati namunalari bor.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib bu san’at turi mamlakatimizning boshqa hududlarida ham rivojiana boshladi. Endilikda Toshkent badiiy buyumlar fabrikasida, xususiy fermalarda ishlab chiqarilayotgan so‘zanalar, zarchoponlar turmushimizga yanada chuqurroq kirib bormoqda. Bugungi kunda kelin-kuyovlar, to‘ybolalar, yubiliylar, ulkan yutuqqa erishganlarga zarchopon kiydirish odat tusiga kirib bormoqda. Toshkentda o‘tkazilgan “Prezident Kubogi” xalqaro tennis turnirining g‘oliblari ingiliz Tim Xemman, Shved Mark Ruzetskiy, Rossiyalik Marta Safinlarga O‘zbekiston Prezidenti zarchopon kiydirdi. Andijonlik bokschi Muhammadqodir Abdullayev Mustaqil O‘zbekiston tarixida birinchi bor Olimpiada championi bo‘lib zarchopon kiyganida har bir O‘zbekistonlikning g‘ururlanganligi amaliy san’atning bu turi o‘zbek xalqining iftixoriga aylanganligidan dalolatdir.

Zardo‘zlik san’atida qo‘llaniladigan ramziy shakllar ham insonlar hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Undagi naqsh elementlaridan bodom, uzum, uzum gajagi, paxta, buta, daraxt, turi shakldagi gullar, ko‘za va undagi buta, zirk butasida gurunj, kungaboqar, majnuntol, novda va yaproq kabilarning shakllari stilizatsiyalashtirilgan ko‘rinishda qo‘llaniladi.

Amaliy bezak san’atida, ayniqsa zardo‘zlikda bodom tasviri ko‘p qo‘llaniladi. Chunki baxt – iqbol ramzi hisoblanadi. Unda bir oz cho‘zinchoqroq shakli qalampir tasviri esa yomon ko‘zdan asrash maqsadida qo‘llaniladi. Anor esa to‘kinchilik, ezgulikning ramziy tasviri sifatida ishlatiladi. Gulsafsar-osoyishtalik va umrboqiylik, to‘lqinsimon gul poyasi boylik va farovonlik, novda va yaproqlar esa to‘kinchilik va uyg‘onishni anglatadi. Yuqorida eslatib o‘tilgan ramziy shakllar ko‘proq amaliy bezak san’atining zargarlik turida ishlatiladi. O‘zbekiston naqsh ramzlari haqidagi ma’lumotni keyingi mavzuda davom ettiramiz.

2. Amaliy qism. Ramziy shakllardan naqsh kompozitsiyasini tuzing?

Endi o‘rgangan ramziy shakllardan mustaqil kompozitsiya ishlang. Kompozitsiyani so‘zana, palak yoki zardevorga moslab tuzing. Rasmdagi majnuntol elementlarini boshqacha kompozitsiya qilish ham mumkin. Ramziy ma’no kasb etuvchi tabiiy shakllarini stilizatsiyalash namunalarinidan foydalaning. Kungaboqar va bodom tasviridan ham kompozitsiyaning o‘zgacha variantini ishlash ustida o‘ylab ko‘ring. Topilgan ramziy shakllardan so‘zana uchun naqsh ishlang. So‘zananing foni, ya’ni naqshlar tushiriladigan mato to‘q rangda bo‘lishini unutmang. Ko‘p hollarda qora mato tanlanadi, shuning uchun bu vazifani guash bo‘yog‘ida bajargan maqla.

Qiz bolalar zardo‘zlik namunasi uchun kompozitsiya tuzib, uni mustaqil tarzlarida tikishlari mumkin. U kichkina to‘n, qiyiq, do‘ppi kabi uncha murakkab bo‘limgan buyumlar bo‘lishi maqsad muvofiqdir. Yodingizda tuting, zardo‘zlik buyumlari sifatli, qalin matolarga tikiladi.

Odatda, bahmal, velyur kabi materiallar tanlanadi.
Mustahkamlash: Yangi mavzu yuzasidan savollar beriladi.
Baholash: Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi.
Uyga vazifa: Amaliy bezak san’atida namunalaridan, shakllaridan chizib kelish.





Nazorat uchun savollar.

1. Amaliy bezak san'atining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Xalq hunarmandchiligi turlarini aytib bering?
3. Usta-shogird deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun Chingizxon hukmronligini milliy san'at bir muncha izdan chiqdi?
5. Qaysi xonlikda hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi?
6. XVI-XVII asrlarga kelib qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
7. Toshkent Navoiy nomli opera va balet teatri qachon qurilgan?
8. Kurant binosi qachon va kimlar tomonidan qurib bitkazildi?
9. Toshpo'lat Arslonqulov qachon yashab ijod qilgan?
10. Qanday yog'och o'ymakorlik maktablari bor?
11. Toshkent yog'och o'ymakorlik maktabida qanday naqshlardan foydalananadilar?
12. Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablardan qaysi tomonlama farq qiladi?
13. Qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabida qanday materiallardan foydalananadilar?
14. Marg'ilon yog'och o'ymakorlik maktabini boshqa maktablardan farqi.
15. Kandakorlik san'ati tushunchasi haqida fikringiz.
16. Toshkent kandakorlik san'atining o'ziga xos xususiyatlarini aytинг.
17. «Tugmacha» naqsh qaysi viloyat kandakorligida ishlatiladi.
18. Samarqand kandakorlik maktabi paydo bo'lishi, rivojlanish haqida nimalarni bilasiz.
19. Qarshi kandakorligiga xos xususiyat haqida gapiring.
20. Kulolchilik san'ati qachon paydo bo'lgan?

21. Kulolchilik charxi qachon ixtiro qilingan?
22. Kulolchilikka hissa qo'shgan ustalar kimlar?
23. Kulolchilik san'ati qayerlarda rivojlangan?
24. Pichoqchilik san'ati tarixini ayting?
25. Pichoqchilik maktabi mavjudmi?
26. Pichoq turlarini ayting.
27. Pichoqchilikda ishlataladigan asbob va materiallarni ayting?
28. Zargarlik san'atining rivojlanish tarixini ayting?
29. Zargarlik san'atining rivojlanishida ishlataladigan asbob va materiallar?
30. Zargarlikdagi ustalar kimlar?
31. Zardo'zlik san'atining rivojlanish tarixini ayting?
32. Zardo'zlikda ishlataladigan asbob va materiallar?
33. Zardo'z ustalardan kimlarni bilasiz?
34. Gilam to'qish tarixini aytib bering?
35. Kigiz bosish tarixini aytib bering?
36. Gilam to'qishda, kigiz bosishda ishlataladigan materiallar nima?
37. Savatchilik san'atining rivojlanish tarixini ayting?
38. Bo'yra to'qish san'atining rivojlanish tarixini ayting?

Foydalaniman adabiyotlar

1. I.Karimov O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida Toshkent O'zbekiston 2011-yil
- 2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2009 y.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2010 yil 13-novabr.
- 4.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2010 yil 8 dekabr.
- 5.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2011 yil 22 yanvar.
- 6.Karimov I.A. “O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. – T.: “O'zbekiston”, 1-jild. 1996 y.
- 7.Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliv qadriyat. – T.: “O'zbekiston”, 14-jild. 2006 y.
- 8.Karimov I.A.“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – T.: “Ma'naviyat”, 2008 y.
- 9.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: “O'zbekiston”, 2010 y.
- 10.Karimov. I.A. «Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari» kitobi. T.: 2009 yil. “Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. – T: “O'zbekiston”, 2010 y.
11. A. Sulaymonov. Sharq miniatyura san'ati. Toshkent. 2005 yil.
12. A. Sulaymonov, N. Abdullayev Tasviriy san' at 7- sinf o 'quvchilar uchun o 'quv qo 'llanma. Toshkent- 2002 yil.

13. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. Qomuslar bosh tahririysi. Toshkent. 1992 y
14. Barkamol avlod – kelajagimiz tayanchi. – T: “Ma’naviyat”, 2010 y.
15. Bulatov S., A. Dadashev. Naqsh alifbosi Toshkent. 2005 y.
16. **Bulatov. S. Xalq amaliy san' ati. Toshkent 2000 y.**
17. J. Majidov Maktabda tasviriy san‘at bo‘yicha o‘quv – tarbiya ishlarini tashkil etish.
18. R. Hasanov Tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar. 1-qism. Toshkent 2006 yil
19. R. Hasanov Tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar. 2-qism. Toshkent 2006 yil
20. R. Hasanov. Amaliy bezak san’ati mashg‘ulotlari metodikasi. Toshkent. 2003 yil.
21. Uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi (Tasviriy san‘at, chizmachilik va musiqa madaniyati) (1–9 sinflar) 2010 YIL